# Centrum

Inflight magazine

N°1 | Winter 2023-2024




Багаж утерян.
Советы юриста

*Bagaj yo'qolsa.
Huquqshunos maslahati*

События, достойные
внимания

*E'tiborga loyiq
voqealar*

Путешествие,
изменившее жизнь

*Hayotni o'zgartirgan
sayohat*

Нетуристический
Ташкент

*Notanish manzillar*

РОСКОШНОЕ МЕСТО ДЛЯ
**ПРОЖИВАНИЯ, РАБОТЫ** И **ШОПИНГА**
В **ТАШКЕНТЕ**




PIRAMIT
▪RESIDENCE ▲OFFICE ●MALL

78-777 33 33
piramit.uz

РЕКЛАМА







KOC
CONSTRUCTION

UZTELECOM
GSM/CDMA

# РОУМИНГ ПАКЕТЫ

# Объедини мир в своем телефоне!



Способ активации пакетов - через набор USSD кода
или приложение MyUztelecom;
Код активации через USSD - *188#

РЕКЛАМА



MyUZTELECOM

Download on the App Store

GET IT ON Google Play

TENGE BANK

# Управляйте вашими средствами в мобильном приложении Tenge24!

- Гибкие депозиты до 23% годовых
- Бесплатные переводы на любую карту*
- Мгновенные переводы в Казахстан
- Онлайн-микрозаймы до 50 000 000 сум
- Выгодная рассрочка без переплат
- Конвертация по пяти валютным парам
- Более 400 000 товаров в Tenge Market

* Лимит бесплатных ежемесячных переводов устанавливается согласно утверждённым тарифам. Подробная информация на сайте www.tengebank.uz

Google Play

App Store

1245

www.tengebank.uz

Лицензия ЦБ РУз на проведение банковских операций №85 от 25 декабря 2021г.

РЕКЛАМА

# Tenge24

1 Скачайте приложение

2 Пройдите идентификацию

3 Получите весь спектр услуг



Hilton
TASHKENT CITY





# Изысканность и роскошь
## в сердце Ташкента

Отель Hilton Tashkent City предоставляет 258 современных номеров. К вашим услугам 2 масштабные площадки для проведения мероприятий различного уровня, роскошные рестораны и бары, где тандем иностранных и местных поваров приятно удивит вас шедеврами кулинарного искусства, а также премиальный спа- и фитнес-центр Serenity Spa, который погрузит вас в мир релаксации и отдыха.

Islam Karimov Street, block 5 | Tashkent, 100027, Uzbekistan
+998 71 210-88-88

reservations@hilton-tashkent.com
www.tashkentcity.hilton.com

РЕКЛАМА






# Содержание
## *Mundarija*

16 **Встречай, Дубай!**
*Dubay, kutib ol!*

24 **То как зверь она завоет, то заплачет, как дитя**
*Birda hayvon kabi oʻkirar nolon, birda bola kabi yigʻlaydi chunon*

30 **Следуй за кроликом**
*Quyon ortidan ergashib*

42 **Багаж утерян. Советы юриста**
*Bagaj yoʻqolsa. Huquqshunos maslahati*

52 **Путешествие, изменившее жизнь**
*Hayotni oʻzgartirgan sayohat*













76 Своими глазами
*O‘z ko‘zingiz bilan ko'ring*

86 А как же оливье?
*Olivye-chi?*

96 Выше облаков
*Bulutlardan yuksakda*

100 Единение с природой
*Tabiat bilan birlashuv*

118 Только Будда прощает дважды
*Faqatgina Budda ikki marta kechiradi*

122 Мысль. Фантазия. Расчёт
*Fikr. Fantaziya. Mo‘ljal*

# Centrum
Inflight magazine

**Продюсер проекта:**
*Сауле Мукадамова*

**Коммерческий директор:**
*Лола Рахматуллаева*

**Главный редактор:**
*Елизавета Алмазова*

**Выпускающий редактор:**
*Ислам Рахманов*

**Перевод, узбекский язык:**
*Камол Назаров*

**Редактор и корректор, узбекский язык:**
*Нилуфар Мавланова*

**Редактор и корректор, русский язык:**
*Марина Исайчева*

**Дизайн и верстка:**
*Эмиль Зубаиров*
*Диёр Матчанов*
*Афзал Хамидов*

**Фото:**
*Музаффар Юсупов*

**Юридический адрес редакции:**
*Ташкент, Мирзо Улугбекский район, массив Буюк ипак йули, 1Б*

**Отдел рекламы:**
*Телефон: +998 99 855 55 07*

**Email: info@bhh.uz**

**Loyiha prodyuseri:**
*Saule Mukadamova*

**Tijorat direktori:**
*Lola Rahmatullayeva*

**Bosh muharrir:**
*Yelizaveta Almazova*

**Chiqaruvchi muharrir:**
*Islam Rahmanov*

**Tarjima, oʻzbek tili:**
*Kamol Nazarov*

**Muharrir va musahhih, oʻzbek tili:**
*Nilufar Mavlanova*

**Muharrir va musahhih, rus tili:**
*Marina Isaycheva*

**Dizayn va sahifalash:**
*Emil Zubairov*
*Diyor Matchanov*
*Afzal Xamidov*

**Suratlar:**
*Muzaffar Yusupov*

**Tahririyatning yuridik manzili:**
*Toshkent, Mirzo Ulugʻbek tumani, Buyuk ipak yoʻli mavzesi, 1B*

**Reklama boʻlimi:**
*Telefon: +998 99 855 55 07*

**Email: info@bhh.uz**

Лицензия № С-5669433. 20.12.2023

Журнал распространяется на бортах авиакомпании Centrum Air по всем направлениям.

Редакция не несет ответственности за содержание рекламных материалов. Использование материалов или их фрагментов в любой форме допускается исключительно с письменного разрешения редакции.

Отпечатано в типографии ООО «Jurabek Print»: 111209, Ташкентская область, Кибрайский р-н., пос. Янгиабад, ул. Катта-Су. Формат 210×297 мм. Печать офсетная. Тираж 2 000 экземпляров. Подписано в печать 20.12.2023. Заказ №152

Litsenziya № C-5669433. 20.12.2023

Jurnal Centrum Air aviakompaniyasining barcha yoʻnalishlardagi bortlarida tarqatiladi.

Tahririyat reklama materiallarining mazmuni uchun javobgar emas. Materiallar yoki ularning qismlaridan har qanday shaklda foydalanishga faqat tahririyatning yozma ruxsati bilan yoʻl qoʻyiladi.

«Jurabek Print» MChJ bosmaxonasi chop etilgan: 111209, Toshkent viloyati, Qibray tumani, X.Amirov MFY, Katta suv koʻchasi. Qogʻoz bichimi 210×297 mm, ofset qogʻozi. Adadi 2000 nusxa. 20.12.2023-yilda chop etildi. Buyurtma №152

РЕКЛАМА

LIV HOSPITAL




**ДЕТАЛЬНЫЕ ОБСЛЕДОВАНИЯ И РЕГУЛЯРНЫЙ КОНТРОЛЬ МОГУТ СПАСТИ ВАШУ ЖИЗНЬ**

ознакомьтесь с нашими чек-ап пакетами
для скрининга всего организма

info@livinhospital.com.tr

/ livinhospital

livinhospital.com

Турция
+90 530 171-58-52

@LIVHOSPITALUZ

Ташкент
+998 97 130-11-22



Уважаемые пассажиры Centrum Air!
Я искренне рад приветствовать вас на борту нашей авиакомпании и от лица всей команды благодарю каждого пассажира за то, что вы выбираете нас.

За последние годы гражданская авиация нашей республики взошла на совершенно новый уровень. Это произошло благодаря проведению ряда реформ, направленных на либерализацию авиационного рынка и расширение географии полетов. Именно благодаря правительственным инициативам сегодня мы можем внести свой вклад в развитие отрасли.

2023 год стал для нас особенным. Наша авиакомпания была создана в январе именно в рамках тех самых инициатив, и всего за несколько месяцев добилась неплохих результатов. Однако мы не намерены останавливаться: вовлекая в команду лучших специалистов страны и мира, мы продолжим стремиться к увеличению потока внутреннего туризма, привлечению иностранных путешественников и развитию авиаперевозок в Центральноазиатском регионе.

В завершение этого года мы запускаем новую традицию: в ваших руках находится первый номер нашего бортового журнала. Пусть он станет не только источником полезной информации, но и окном в мир увлекательных историй, интересных событий и ярких впечатлений.

*Наша команда стремится подарить вам незабываемое путешествие, наполненное комфортом, безопасностью и высококачественным обслуживанием. Пусть каждая ваша поездка станет уникальной!*

С уважением, генеральный директор авиакомпании Centrum Air
**Абдулазиз Абдурахмонов**

Hurmat bilan, Centrum Air aviakompaniyasining bosh direktori
**Abdulaziz Abdurahmonov**

Uz

Hurmatli Centrum Air yo'lovchilari! Sizlarni aviakompaniyamiz bortida ko'rishdan mamnunman va bizni tanlaganingiz uchun butun jamoa nomidan har bir yo'lovchiga minnatdorchilik bildiraman.

So'nggi yillarda respublikamizdagi fuqaro aviatsiyasi butunlay yangi bosqichga ko'tarildi. Bunga aviatsiya bozorini liberallashtirish va parvozlar geografiyasini kengaytirishga qaratilgan bir qator islohotlar tufayli erishildi. Aynan, hukumat tashabbusi natijasida, biz bugungi kunda soha rivojiga o'z hissamizni qo'shayapmiz.

2023 yil biz uchun o'zgacha bo'ldi. Aviakompaniyamiz yanvar oyida aynan shu tashabbuslar doirasida tashkil etildi va atigi bir necha oy ichida yaxshi natijalarga erishdik. Ammo, erishilgan marralar bilan cheklanmoqchi emasmiz. Jamoaga mamlakatimiz va dunyoning eng yaxshi mutaxassislarini jalb qilish orqali ichki turizm oqimini ko'paytirish, chet ellik sayohatchilarni jalb qilish va Markaziy Osiyo mintaqasida yuklarni havo transportida tashishni rivojlantirishga intilishda davom etamiz.

Yil yakunida biz yangi an'anani yo'lga qo'ydik: qo'lingizda bort jurnalimizning birinchi soni. U nafaqat foydali ma'lumotlar manbai, balki, maroqli sarguzashtlar, qiziqarli voqealar va yorqin taassurotlar olamini aks ettiruvchi ko'zgu bo'lib qolsin.

*Jamoamiz sizlarga qulaylik, xavfsizlik va yuqori sifatli xizmat bilan unutilmas sayohatni ta'minlashga intiladi. Har bir sayohatingiz o'zgacha bo'lsin!*




# Летайте с заботой и комфортом

Путь с Centrum Air — не просто маршрут,
а благодать в каждой минуте

РЕКЛАМА

998 55 518 88 88
centrum-air.com

CENTRUMAIR

# О КОМПАНИИ

## *Kompaniya haqida*




Centrum Air – первая эко-авиакомпания Узбекистана, созданная в начале 2023 года в рамках правительственной инициативы, направленной на улучшение качества авиаперелетов для жителей республики. Она осуществляет чартерные и регулярные рейсы по местным и зарубежным направлениям. Несмотря на короткий период своей деятельности, Centrum Air уже оказала значительное влияние на авиационную отрасль республики, став ведущим игроком и продолжая набирать популярность среди путешественников.
На сегодняшний день Centrum Air является единственной авиакомпанией, придерживающейся жестких экологических принципов. Всего за несколько месяцев была проведена колоссальная работа над минимизацией уровня отходов за счет уменьшения работы с бумажными носителями, снижения выброса углекислого газа и сокращения углеродного следа благодаря использованию лайнеров с модернизированными и экологичными двигателями.
В данный период пассажирские рейсы Centrum Air выполняют девять самолетов, в числе которых Airbus A-320, Airbus A-319 VIP, Airbus A-321, Boeing 747 и другие. Авиакомпания постоянно развивается и работает над расширением флота, чтобы обеспечить комфортные и безопасные условия для пассажиров, и к 2025 году планирует расширить свой авиапарк до 25 самолетов.
Не секрет, что развитие любой компании напрямую зависит от ее сотрудников. В Centrum Air работают свыше 600 человек. Уделяя огромное внимание профессионализму работников, авиакомпания проводит мероприятия по обучению и повышению их квалификации: каждые три месяца повторное обучение проходят бортпроводники; каждые шесть месяцев – пилоты.
Компания не отстает и от социальной жизни. Например, Centrum Air является партнером Профессиональной футбольной лиги Узбекистана. Так, в начале 2023 года была достигнута договоренность, согласно которой Лига по итогам каждого месяца определяет победителей в трех номинациях: лучший тренер, лучший игрок и самый красивый гол месяца. Авиакомпания, в свою очередь, вручает им ваучер на отдых в разных странах мира на двоих.
Таким образом, авиакомпания Centrum Air, благодаря непрерывному развитию, открытию новых направлений и удовлетворению потребностей клиентов стремится быть надежным партнером, предлагающим наилучший сервис.




Centrum Air — 2023 yil boshida hukumat tashabbusi bilan tashkil etilgan, respublika aholisi uchun havo qatnovi sifatini yaxshilashga mo'ljallangan O'zbekistonning birinchi eko-aviakompaniyasi. U mahalliy va xorijiy yo'nalishlarga charter va muntazam reyslarni amalga oshiradi. Faoliyat yurita boshlaganiga ko'p bo'lmasdan, Centrum Air yetakchi o'yinchiga aylanib ulgurdi va sayohatchilar orasida shuxrat qozonishda davom etib, respublika aviatsiya sanoatiga sezilarli ta´sir ko'rsatdi.

Centrum Air bugungi kunda qat´iy ekologik tamoyillarga amal qiladigan yagona aviakompaniya bo'lib hisoblanadi. Atigi bir necha oy ichida, modernizatsiya qilingan va ekologik dvigatelli laynerlardan foydalanish natijasida, qog'oz tashuvchilar bilan ishlash, karbonat angidrid tashlamalarini kamaytirish va uglerod izini qisqartirish hisobiga, chiqindilar darajasini minimallashtirish bo'yicha katta miqyosdagi ishlar amalga oshirildi.

Ayni damda, Centrum Air yo'lovchi reyslarini to'qqizta samolyot, shu jumladan Airbus A-320, Airbus A-319 VIP, Airbus A-321, Boeing 747 va boshqalar amalga oshiradi. Yo'lovchilar uchun qulay va xavfsiz sharoitlarni ta´minlash maqsadida aviakompaniya doimiy ravishda rivojlanib, havo kemalari flotini kengaytirish ustida ishlamoqda va 2025 yilga kelib o'z aviaparkidagi samolyotlar sonini 25 taga yetkazishni rejalashtirmoqda.

Hech kimga sir emaski, har qanday kompaniyaning rivojlanishi bevosita uning xodimlariga bog'liq. Centrum Air da 600 nafardan ortiq kishi ishlaydi. Xodimlarning professionalligiga katta e´tibor qaratgan holda, aviakompaniya ularni o'qitish va malakasini oshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi: har uch oyda bortkuzatuvchilarning; har olti oyda esa uchuvchilarning malakasi oshiriladi.

Kompaniya jamiyat ijtimoiy hayotida ham faol. Masalan, Centrum Air O'zbekiston Professional futbol ligasining hamkori hisoblanadi. 2023 yil boshida kelishuvga erishildi va unga ko'ra, Liga har oy yakuniga ko'ra uchta — eng yaxshi murabbiy, eng yaxshi o'yinchi va oyning eng chiroyli goli nominatsiyalarida g'oliblarni aniqlaydi. Aviakompaniya esa o'z navbatida ularga dunyoning turli mamlakatlarida dam olish uchun ikki kishilik vaucherni taqdim etadi.

Shunday qilib, Centrum Air aviakompaniyasi uzluksiz rivojlanish, yangi yo'nalishlarni ochish va mijozlar ehtiyojini qondirish orqali eng yaxshi xizmatni taklif qiladigan ishonchli hamkor bo'lishga intiladi.



# Dubay, kutib ol!

## Встречай, Дубай!

Если вы ещё не определились, чем займётесь после прилёта в Дубай, держите список заданий, обязательных к исполнению.

*Dubayga kelgach, nima bilan shugʻullanish borasida hali qaror qabul qilmagan boʻlsangiz, bajarilishi kerak boʻlgan ushbu tavsiyalar roʻyxatini saqlab qoʻying.*

# Вкусить / *Tatib ko‘ring*
















1. Регаг
   *Regag*
2. Мясо на гриле
   *Grilda pishirilgan go‘sht*
3. Тако с рыбным фаршем
   *Baliq qiymasidan tako*
4. Эмиратскую пасту с мясом
   *Amirlikning go‘shtli pastasi*
5. Блинчики чебаб
   *Chebab quymog‘i*

6. Говяжью кюфту
*Mol go‘shtidan tayyorlangan ko‘fte*

7. Рис с солёным манго
*Tuzlangan mangoli guruch*

8. Маринованные креветки в тесте кадаиф
*Kadaif xamirida tayyorlangan marinadlangan krevetka*









## Отправиться / *Tashrif buyuring*













1. На The Beach at JBR и Black Palace Beach
   *The Beach at JBR va Black Palace Beach*
2. На сафари на территории природного заповедника
   *Tabiat qo'riqxonasi hududidagi safari*
3. В поездку на горных велосипедах в Mushrif Park
   *Mushrif Parkiga tog' velosipedida sayohat*
4. В круиз на Dhow Ramee
   *Dau Ramee kruizi*

## Запечатлеть / *Esdalik uchun tasvirga oling*




1. **Quranic Park**
   *Quranic Park;*
2. **Al Shindagha Museum**
   *Al Shindagha Museum*
3. **Dubai Museum & Al Fahidi Fort**
   *Dubai Museum & Al Fahidi Fort*
4. **Sheikh Saeed Al Maktoum House**
   *Sheikh Saeed Al Maktoum House*
5. **Crossroad of Civilizations Museum**
   *Crossroad of Civilizations Museum*
6. **Al Fahidi Historical Neighbourhood**
   *Al Fahidi Historical Neighbourhood*






4



5




6



# Не забыть / *Unutmang*













1. Нугу
   *Nuga (yong'oq holva)*
2. Халву
   *Holva*
3. Пахлаву
   *Paxlava*
4. Духи с маслом уд
   *Ud yog'idan tayyorlangan atir*
5. Сувенир «7 песков»
   *«7 qumlik» suveniri*
6. Рахат-лукум
   *Rohat-luqum*
7. Шербет
   *Sharbat*







5



6



7

# Birda hayvon kabi o'kirar nolon, birda bola kabi yig'laydi chunon



**Сейдали Аблятифов**
*Seydali Ablyatifov*
Педиатр-неонатолог
Pediatr-neonatolog

*То как зверь она завоет, то заплачет, как дитя: готовимся к перелету с детьми*

Uz Uzoq davom etadigan parvoz, vaqt mintaqasining oʻzgarishi – sayohatning, ayniqsa, bolalar uchun uncha yoqimli boʼlmagan pallasi. Bunga oʼsmirlar chiday olsalar-da, kichkintoylar uchun bunday turizm ancha qiyin kechadi.Centrum Air jamoasi pediatr-neonatolog Ablyatifov Seydali Seyranovich bilan hamkorlikda bola samolyotda oʻzini xotirjam va qulay his qilishi uchun parvozga tayyorgarlik koʻrishda yordam beradigan kichik qoʻllanmani tayyorladi.

Ru Длительный перелет и смена часовых поясов – не самый приятный момент путешествия, особенно для детей. И если подростки еще готовы потерпеть, то малышам такой туризм дается в разы сложней. Команда Centrum Air в сотрудничестве с врачом педиатром-неонатологом Аблятифовым Сейдали Сейрановичем составила небольшой гайд, способный помочь подготовиться к перелету с ребенком, чтобы он мог чувствовать себя в самолете спокойно и комфортно.

## Bortga oʻzingiz bilan nima olishingiz kerak?

Что взять с собой на борт?

Parvoz imkon qadar qulay boʻlishi uchun unga toʻgʻri tayyorgarlik koʻrib, eng zarur narsalarni olishingiz lozim:
Чтобы полет прошел максимально комфортно, нужно правильно к нему подойти и обязательно взять с собой самое необходимое:

1. bola odatlangan ovqat va suv;
   воду и еду, привычные для ребенка;
2. soʻlakcha
   слюнявчик;
3. qoʻshimcha buyumlar (kiyim-kechak toʻplami, taglik, yopinchiq)
   запасные вещи (комплект одежды, подгузник, плед);
4. bir nechta oʻyinchoq (yaxshisi, bola ilgari koʻrmagan oʻyinchoqlarni oling, shunda ularga koʻproq eʼtibor beradi);
   пару игрушек (лучше брать те, которые ребенок до этого не видел – так он уделит им больше внимания);
5. bir nechta «ertak» kitobi (agar bolangiz ertak eshitmasdan uxlay olmasa).
   несколько «сказок» (если ваш ребёнок не может уснуть без этого ритуала).
6. kattaroq yoshdagi bolalar uchun kitoblar, boʻyash uchun rasmlar, boshqotirmalarni olishingiz mumkin.
   Для детей постарше можно захватить книги, раскраски, головоломки.



Uz Dori-darmon masalasida tashvishlanishga hojat yo‘q — har bir samolyot bortida ehtiyoj tug‘ilganda foydalanishingiz mumkin bo‘lgan birinchi yordam to‘plami mavjud. Faqat o‘zingiz bilan aynan sizning bolangiz uchun zarur bo‘lgan dori-darmonlarni oling. Agar u bronxial astma kabi surunkali kasalliklardan aziyat cheksa, maxsus dorili ingalyatorni olganingiz ma’qul. Bu narsa allergiyaga moyil yosh bolalarga ham taalluqli: ushbu holatda, albatta, antigistamin vositasini olgan yaxshi.

Ru По поводу лекарств можете не переживать: на борту каждого самолёта есть аптечка, которой можно воспользоваться в случае необходимости. Возьмите с собой только те препараты, которые необходимы именно вашему ребенку. Если он страдает хроническими заболеваниями, например, бронхиальной астмой, не забудьте ингалятор со специальным препаратом. Это касается и малышей, склонных к аллергии: в данном случае непременно стоит прихватить антигистаминное средство.

# Uchish va qoʻnish: harakatlar rejasi
## *Взлет и посадка: план действий*

Uz Koʻtarilish va pasayish paytida samolyot salonida bosim oʻzgaradi va bu quloq kanallarida ogʻriqni hosil qiladi. Oddiy yutinish oʻrta quloq ichidagi bosim muvozanatini saqlashga yordam beradi, shu sababli bolangizda noqulaylik hissini kamaytirish uchun uni ovqatlantiring, suv ichadigan idishini yoki soʻrgʻichni bering. Yoshi kattaroq bolalarga shimiladigan konfet berish mumkin.

Agar bola quloq infeksiyasi bilan ogʻrigan yoki parvozdan ikki hafta oldin jarrohlik amaliyotini boshdan kechirgan boʻlsa, parvoz uning sogʻligʻiga tahdid qilmasligi masalasida otorinolaringolog bilan maslahatlashish kerak. Shuningdek, parvoz paytida salonda juda shovqin boʻlishi mumkin. Ushbu tovushlar chaqaloqni choʻchitmasligi uchun unga shovqinni pasaytiruvchi maxsus quloqchin taqishingiz mumkin, shunda u xotirjam uxlaydi.

Ru Во время набора и снижения высоты давление в салоне самолета меняется, что приводит к боли в ушных каналах. Выровнять давление внутри среднего уха поможет обычное глотание, поэтому, чтобы уменьшить дискомфорт вашего ребёнка, покормите его, дайте бутылочку или пустышку. Детям постарше можно дать леденцы.

Если ребенок перенес ушную инфекцию или операционное вмешательство менее чем за две недели до полета, следует уточнить у оториноларинголога, безопасно ли ему лететь. Также во время взлета в салоне может быть очень шумно. Чтобы эти звуки не пугали младенца, можно надеть на него специальные шумоподавляющие наушники – так он и спать будет крепче.

# Parvoz paytida bolani uxlatish uchun nima qilish kerak
## *Как уложить ребенка спать во время полета*

Uz Parvozingiz vaqtini bolangizning uyqu rejimiga moslashtirishga harakat qiling. Masalan, tungi parvozni yoki uning kun tartibiga mos keladigan kunduzgi reysni tanlang.

Chaqaloq uxlab qolishi uchun uyda qoʻllaydigan usullaringizdan foydalaning: ovqatlanishni taklif qiling, soʻrgʻich yoki suv idishini bering, qoʻllari bilan oʻziga xalaqit bermasligi uchun adyol yoki yopinchigʻiga oʼrab qoʼying.

Kattaroq yoshdagi bolalarni parvozdan oldin yaxshilab sayr qildirish mumkin, shunda yengil charchoq tufayli ular tezroq uxlab qoladi.

Dori-darmonlardan esa voz kechgan maʼqul. Pediatrlar bolani tez uxlatish uchun ularga difengidramin asosida tayyorlangan retseptsiz dori-darmonlarni berishni tavsiya qilishmaydi. Baʼzida bu dorilar bolani yanada koʻproq bezovta qiladi.

Ru Постарайтесь подстроить вылет под режим сна вашего ребёнка. Например, выбирайте ночной рейс или тот дневной, что соответствует вашему распорядку.

Чтобы младенец уснул, обратитесь к способам, работающим дома: предложите поесть, дайте соску или бутылочку, укутайте в одеяло или плед, чтобы он не мешал себе руками.

Детей постарше можно хорошо выгулять перед полётом, чтобы легкая усталость позволила им быстрее уснуть.

А вот от лекарств лучше отказаться. Педиатры не советуют давать ребёнку безрецептурные препараты на основе дифенгидрамина, чтобы ускорить засыпание, тем более что иногда они только сильнее возбуждают.





# Samolyotda chaqaloq tagligini qanday almashtirish mumkin

## *Как поменять ребенку подгузник в самолёте*

Uz Aslida buni parvozdan oldin bajarish osonroq, ammo turli xil vaziyatlar ro’y berishi mumkin. Shuning uchun qo‘l yukingizga bir nechta qo’shimcha taglik va nam salfetkalar solishni unutmang.

Odatda hojatxonada yo‘rgaklash stoli mavjud bo’ladi. U unchalik qulay bo‘lmasa-da, ammo, ishingizni yengillashtiradi.

Ehtiyoj tug‘ilganda styuardessadan yordam so‘rashdan tortinmang, ayniqsa, faqat bolangiz ikkingiz uchayotgan bo‘lsangiz.

Ru Понятно, что в идеале это проще сделать до полёта, но бывают различные ситуации. Так что не забудьте положить в ручную кладь парочку запасных подгузников и влажные салфетки.

В туалете обычно есть пеленальный столик. Он не слишком удобный, зато освобождает руки.

И не стесняйтесь попросить помощи у стюардессы, если что-то не получается, особенно если летите с ребенком вдвоем.





# Bola yig‘lasa nima qilish kerak

Что делать, если ребёнок плачет

Klassik vaziyat: bortdagi bolalardan biri yig'lay boshlaydi va qolganlari darhol unga jo'r bo'ladi – bundan qutulib bo'lmaydi. Ammo siz qanchalik xotirjam va bosiq bo'lsangiz, bolani tinchlantirish va chalg'itish shunchalik osonroq bo'ladi. Bu vaziyatdagi muayyan yechim bolaning yoshiga bog'liq:
Классическая ситуация: один ребёнок на борту начинает плакать, и тут же подключаются остальные – этого не миновать. Но чем ресурснее и спокойнее будете вы, тем проще будет успокоить и отвлечь малыша. Конкретное решение будет зависеть от возраста:

1. Maktabgacha yoshdagi bola quloqlaridagi bosimdan shikoyat qilishi mumkin: unga konfet bering va hamdard ekaningizni bildiruvchi so'zlar aytib, yupating.
Дошкольник, скорее всего, будет жаловаться на давление в ушах: выдайте ему леденец или конфету и выскажите слова сочувствия.

2. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar ham samolyot ko'tarilishi va pasayishni og'ir kechirishi, shuningdek, charchashi yoki zerikishi mumkin. Agar uyqu bosayotgan bo'lsa — tebratib uxlatishga harakat qiling, agar uxlamasa — faqat ovqatlantirish va o'ynatishingiz mumkin.
Дети от 1 года до 3-х лет тоже могут плохо переносить взлёт и снижение, а также устать или заскучать. Если сонный – попробуйте укачать, если нет – остаются еда и развлечения.

3. Chaqaloq bilan variantlar ko'proq: och qoladi, tagini ho'llaydi, uyqusiraydi, isib ketadi, noqulay yotgan bo'ladi. Agar tagligi quruq va bola ko'krak suti bilan oziqlanadigan bo'lsa, uni emizib birmuncha vaqtga yig'ini unutish mumkin.
У грудного малыша будет больше всего вариантов: голодный, мокрый, сонный, перегревшийся, неудобно лежащий. Если в подгузнике сухо, а ребёнок на грудном вскармливании, то можно покормить и на время забыть о криках.

4. Sun'iy oziqlantiriladigan bolalarning ota-onalariga biroz qiyinroq bo'lishi mumkin, chunki qo'lda tebratishga to'g'ri keladi. Bolani yo'rgaklab harakatsizlantirishga urinib ko'ring: butunlay yo'rgaklashga hojat yo'q, faqat qo'l-oyog'ini o'rab qo'yish yetarli.
Родителям детей на искусственном вскармливании будет чуть сложнее – укачивать придётся вручную. Попробуйте обездвижить младенца пеленкой: пеленать необязательно, достаточно стянуть руки и ноги.

5. Va nihoyat, sizga tanbeh beradigan yo'lovchilardan jahlingiz chiqmasin. Bolalar ham alohida shaxsdir: ularning xatti-harakatlari sizning harakatlaringizga bog'liq emas va ular o'z muammosi to'g'risida sizga faqat shu tarzda xabar berishi mumkin. Siz imkon qadar qo'lingizdan kelganini qilyapsiz.
И в заключение: не сердитесь на пассажиров, которые будут делать вам замечания. Дети – это отдельные личности: их поведение мало зависит от ваших действий, а сказать о проблеме они могут только таким образом. Вы и так делаете всё, что в ваших силах.



# Следуй за кроликом

## *Quyon ortidan ergashib*

ПРОГУЛКА ПО НЕТУРИСТИЧЕСКОМУ ТАШКЕНТУ

*Turistbop bo'lmagan Toshkent bo'ylab sayr*

Ташкент – не просто столица современного государства, но и настоящая культурологическая жемчужина. В пределах города и его окрестностей можно увидеть множество достопримечательностей, отражающих богатую историю и многоликую культуру региона. Но мегаполис способен удивить даже коренных жителей, ведь на его пространстве можно найти ранее неизведанные, но весьма интересные локации. Предлагаем и вам отправиться вместе с нами в небольшое путешествие по неизвестному Ташкенту.

Toshkent nafaqat zamonaviy davlat poytaxti, balki haqiqiy madaniyat marvaridi hamdir. Shahar va uning atrofida mintaqaning boy tarixi va rango-rang madaniyatini aks ettiruvchi ko'plab diqqatga sazovor joylarni uchratish mumkin. Megapolis hatto mahalliy aholini ham ajablantirishga qodir, axir uning ko'chalarida ilgari ko'rilmagan juda qiziqarli manzillarni topish mumkin. Sizni ham biz bilan birgalikda noma'lum Toshkent bo'ylab qisqa sayohatga taklif qilamiz.

### *Действие первое. Сцена первая*

Истинный театр живет благодаря энтузиастам, посвящающим ему всю свою жизнь. Для них это не просто профессия, а возможность вести диалог с современником в попытке переосмысления прошлого и поиска ответов на вопросы насущного дня. Обитель именно такого энтузиазма, вдохновения и сильнейшей творческой энергии можно найти на массиве Ц-1, недалеко от старой консерватории. В малоприметном здании, расположенном внутри уединенного двора, находится святилище искусства – молодежный экспериментальный театр-студия «Дийдор».

Его история берет начало в далеком 1989 году, когда заслуженный работник культуры Узбекистана, режиссер и педагог Эргаш Масафаев на сцене нового, еще никому не известного театра осуществил постановку спектакля «Дийдор» по пьесе драматурга Максима Каримова. Премьера знаменательна не только оглушительным успехом: название действа впоследствии и было присвоено театру.

Однако театром в привычном нам понимании этого слова «Дийдор» не был. Он представлял собой некий Дом актеров – место встреч служителей сцены из разных стран, которые обменивались опытом, работали над новыми постановками, проводили творческие эксперименты и в целом ловили вдохновение.

На новую ступень развития театр встал в 2006 году, когда его художественным руководителем стал актёр театра и кино, театральный режиссёр, заслуженный деятель искусств Узбекской ССР, народный артист Узбекистана Баходир Юлдашев, преемником которого в 2021 году стал Бобур Юлдашев. Именно за это время было поставлено более 40 спектаклей, совершены гастроли по всему Узбекистану, реализованы совместные постановки с театром-студией ESSENCE (США). Кроме того, труппа принимала участие в XXI Международном Волковском фестивале (Россия) и Международном фестивале уличных театров (Казахстан).

На сегодняшний день для постановки всемирно известных шедевров приглашаются именитые режиссеры из разных стран мира.





### *Birinchi parda. Birinchi sahna*

Haqiqiy teatr butun hayotini unga bag'ishlagan jonbozlar tufayli barhayot bo'ladi. Bu ular uchun shunchaki kasb emas: bu o'tmishning mag'zini chaqish va bugungi kunning dolzarb savollariga javob topish maqsadida zamondosh bilan muloqot qilish imkoniyatidir. Bunday g'ayrat, ilhom va kuchli ijodiy quvvat maskanini Eski konservatoriya yaqinidagi S-1 mavzesidan topish mumkin. Chekkadagi hovlining ichida, ko'rimsiz binoda san'at dargohi — «Diydor» yoshlar eksperimental teatr-studiyasi joylashgan.

Uning tarixi uzoq 1989 yildan boshlanadi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, rejissyor va pedagog Ergash Masafayev yangi, hali hech kim tanimagan teatr sahnasida dramaturg Maksim Karimov pyesasi asosida «Diydor» spektaklini sahnalashtirgan. Premyera nafaqat zo'r muvaffaqiyatga erishgan, hatto keyinchalik uning nomi teatrga berilgan.

Biroq, «Diydor» biz odatlangan teatr emas edi. U turli mamlakatlardan kelgan sahna xodimlarining tajriba almashadigan, yangi sahnalar ustida ishlaydigan, ijodiy tajribalar o'tkazadigan va umuman ilhom beradigan uchrashuv joyi — o'ziga xos Aktyorlar uyi edi.

2006 yilda teatr va kino aktyori, teatr rejissyori, O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, O'zbekiston xalq artisti Bahodir Yo'ldoshev rahbar etib tayinlangach, teatr yangi rivojlanish bosqichiga o'tdi. 2021 yilda esa, Bobur Yo'ldoshev uning vorisi bo'ldi. Aynan shu davr ichida 40 dan ortiq spektakllar sahnalashtirildi, butun O'zbekiston bo'ylab gastrollar uyushtirildi, ESSENCE teatr studiyasi (AQSh) bilan qo'shma spektakllar namoyish etildi. Bundan tashqari, truppa XXI Xalqaro Volkov festivali (Rossiya) va Xalqaro ko'cha teatrlari festivalida (Qozog'iston) ishtirok etdi.

Bugungi kunda, dunyoga mashhur durdona asarlarni sahnalashtirish uchun dunyoning turli mamlakatlaridan taniqli rejissyorlar taklif qilinmoqda.





РЕКЛАМА




# EVERY STAY IS A NEW EXPERIENCE

COURTYARD®
BY MARRIOTT
Tashkent

COURTYARD BY MARRIOTT TASHKENT
Kichik beshyogoch street 126
Tashkent, 100013
courtyard.com

## Passion moves us forward

Our passion is to help you follow yours. When choosing Courtyard by Marriott Tashkent, you get a comfortable stay and high-quality service for productive work and a relaxing holiday. We take care of all aspects necessary to fully satisfy the needs of our guests.

Наша цель — помочь вам следовать за вашей. Выбирая Courtyard by Marriott Ташкент, вы получаете комфортный отдых и качественный сервис для продуктивной работы и спокойного отдыха. Мы заботимся обо всех аспектах, необходимых для полного удовлетворения потребностей наших гостей.




# IT IS ALL ABOUT MEAT HERE

MEATme | Grill & Bar

COURTYARD BY MARRIOTT TASHKENT
Kichik beshyogoch street 126
Tashkent, 100013
courtyard.com

## Explore our flavors

A real meat restaurant where you can taste premium and alternative steaks from tender US Beef, juicy KazBeef or excellent local ones. Come, make your choice and enjoy. Great service and cozy atmosphere are on us! Moreover, for guests who like international cuisine or wish to try authentic food - we have specialties in our various menu.

Настоящий мясной ресторан, где можно попробовать премиальные и альтернативные стейки из нежной американской говядины, сочного KazBeef или превосходных местных стейков. Приходите, делайте свой выбор и наслаждайтесь. Отличный сервис и уютная атмосфера - у нас! Кроме того, для гостей, которые любят международную кухню или хотят попробовать аутентичные блюда, в нашем разнообразном меню найдутся все варианты.



Например, режиссёром, сценаристом, заслуженным деятелем искусств Республики Саха (Якутия), членом Союза театральных деятелей Российской Федерации и Союза кинематографистов Российской Федерации Сергеем Потаповым были поставлены «Укрощение строптивой» и «Король Лир» Уильяма Шекспира, а таджикским драматургом и театральным режиссером, заслуженным артистом Республики Таджикистан Барзу Абдуразzaковым – спектакли «Сон бабочки» по роману Тимура Зульфикарова и «Бидерман и поджигатели» по пьесе швейцарского драматурга Макса Фриша.

Еще одна примечательная особенность театра-студии «Дийдор» заключается в том, что это единственный театр в Центральной Азии, который представляет свои спектакли бесплатно. Организаторы объясняют это желанием сделать искусство доступным для каждого.

Помимо постановки спектаклей, театр-студия «Дийдор» проводит бесплатное обучение по нескольким направлениям театрального искусства, на которые принимает молодых людей на основе экзамена. Так что, если вы давно мечтали связать свою жизнь с театром, но не знали, с чего вам начать, «Дийдор» станет идеальной ступенью для начала актерской карьеры.

**Адрес:** Ташкент, Мирзо-Улугбекский район, массив Буюк ипак йули, дом 9.
**Контактный номер:** +998 (71) 233-62-12.

Masalan, rejissyor, ssenariy muallifi, Saxa Respublikasida (Yakutiya) xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Rossiya Federatsiyasi Teatr namoyandalari uyushmasi va Rossiya Federatsiyasi kinematograflar uyushmasi a'zosi Sergey Potapov tomonidan Uilyam Shekspirning «Qaysar xonimning quyilishi» va «Qirol Lir» asarlarini, tojik dramaturgi va teatr rejissyori, Tojikiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Barzu Abdurazzakov esa Timur Zulfikarov romani asosida «Kapalakning orzusi» va shveysariyalik dramaturg Maks Frishning pyesasi asosida «Biderman va o't qo'yuvchilar» asarlarini sahnalashtirgan.

«Diydor» teatr- studiyasining yana bir e'tiborga loyiq tomoni shundaki, u o'z spektakllarini bepul namoyish etadigan Markaziy Osiyodagi yagona teatr. Tashkilotchilar buni san'atni hammaga taqdim etish istagi bilan izohlaydilar.

«Diydor» teatr-studiyasi spektakllarni sahnalashtirishdan tashqari, yoshlarni imtihon asosida qabul qilib, ularga teatr san'atining bir nechta yo'nalishlari bo'yicha bepul ta'lim beradi. Agar, uzoq vaqtdan beri hayotingizni teatr bilan bog'lashni orzu qilib, nimadan boshlashni bilmayotgan bo'lsangiz, «Diydor» aktyor karyerasini yaratishdagi ideal qadam bo'ladi.

**Manzil:** Toshkent shaxri, Mirzo Ulug'bek tumani, Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 9-uy.
**Aloqa uchun raqam:** +998 (71) 233-62-12



### *Колорит. Шик. Тишина*

Двигаемся дальше. В центре города находим еще одно привлекательное место: уютный двухэтажный дом с большим двором, винтажным декором и располагающей атмосферой. Это Joydaman – кафе формата speakeasy с авторской кухней, попасть в которое можно только по предварительному бронированию через Telegram-bot.

В этом заведении готовят фирменные настойки, лимонады и другие напитки из натуральных фруктов. Что касается кухни, Joydaman использует в работе исключительные фермерские продукты из региона Паркент, где расположен загородный проект заведения – ферма Kosa. По сути, Joydaman был своего рода «пилотом» фермы, и за более чем год существования команда кафе отработала около 800 различных блюд и собрала базу лучших поставщиков фермерских продуктов.

Также по воскресеньям в Joydaman проводятся гастронетворкинги, куда приглашаются профессиональные шеф-повара. Команда заведения готовит специальное меню, а гости собираются не только попробовать новые блюда, но и пообщаться.





### *Rang-baranglik. Hasham. Sukunat.*

Davom etamiz. Shahar markazida yana bir koʻrkam joy — katta hovlidagi qoʻhna bezaklar va shinam muhitga ega ikki qavatli saranjom uyni uchratamiz. Bu Joydaman — mualliflik taomlariga ega speakeasy formatidagi kafe boʻlib, unga faqat Telegram-bot orqali oldindan joy band qilish orqali kirish mumkin.

Muassasada tabiiy mevalardan maxsus damlamalar, limonadlar va boshqa ichimliklar tayyorlanadi. Taomlarga kelsak, Joydaman kafesi faqat Parkent tumani hududida joylashgan, muassasaning shahar tashqarisidagi loyihasi — Kosa fermasing sifatli fermerlik mahsulotlaridan foydalanadi.

Aslida, Joydaman fermer xoʻjaligining tajribaviy loyihasi boʻlib, bir yildan ortiq vaqt davomida kafe jamoasi 800 ga yaqin turli xil taomlarni ishlab chiqdi va eng yaxshi fermer mahsulotlarini yetkazib beruvchilarning bazasini toʻpladi.

Shuningdek, yakshanba kunlari Joydaman kafesiga professional bosh oshpazlar taklif etilib, gastro-netvorking oʻtkaziladi. Muassasa jamoasi maxsus taomnoma tayyorlaydi, mehmonlar esa, nafaqat yangi taomlarni tatib koʻrish, balki, muloqot uchun ham yigʻiladi.







Если вы в восторге от кухни Joydaman, держите приятную новость: несмотря на всю «закрытость», заведение предоставляет услуги кейтеринга для вечеринок и праздников, и нередко его можно заметить на крупных музыкальных фестивалях и различных ивентах.

Agar, Joydaman taomlari jonu-dilingiz bo'lsa, unda siz uchun yaxshi yangilik: muassasa «yopiq» bo'lishiga qaramay, u turli tadbir va bayramlar uchun keytering xizmatlarini taqdim etadi, shuningdek, uni yirik musiqa festivallari va turli iventlarda ham uchratish mumkin.







### *Цель оправдывает путь*

Завершим наше путешествие проектом, упомянутым выше: Kosa Farm, представляющая собой экспериментальную экоферму в 35 километрах от Ташкента.

На ее территории расположился ресторан с переосмысленной локальной кухней: все блюда готовятся на основе натуральных домашних продуктов с использованием традиционных и инновационных технологий.

Также на ее территории есть два озера с рыбой, производственный цех с собственными коптильней, сыроварней, мясным и овощным цехами. Ведется строительство двухэтажного здания, в котором разместятся различные мастерские – от керамики и металлообработки до кастома велосипедов и переработки бумаги и пластика, коворкинг и апарт-отель.

### *Maqsad masofani oqlaydi*

Sayohatimizni yuqorida tilga olingan loyiha — Toshkentdan 35 kilometr uzoqlikda joylashgan eksperimental eko-ferma — Kosa Farm bilan yakunlaymiz.

Uning hududida oʻzgacha uslubdagi mahalliy taomlar restorani joylashgan: barcha taomlar anʼanaviy va innovatsion pishirish texnologiyalaridan foydalangan holda, tabiiy xonaki mahsulotlar asosida tayyorlanadi.










STAFF ONLY

Как и на любой ферме, здесь можно увидеть животных: коз, гусей и уток, кур, индоуток, попугаев, страусов, кроликов, пони, лошадей, кошек и собак – именно они привлекают сюда множество семей с детьми.

На ферме придерживаются принципов осознанного потребления и zero-waste. Все отходы сортируются и перерабатываются – продуктами переработки являются биогумус (из органических отходов), различные изделия из переработанного пластика, а также постройки на территории, являющиеся примером апсайклинга строительных материалов.

Для того чтобы попасть в это неординарное место, тоже необходима предварительная бронь, получить которую можно на официальной странице в Instagram: @kosa.farm.





Shuningdek, uning hududida ikkita baliq ko'li, o'z dudxonasi, pishloq, go'sht va sabzavot sexiga ega bo'lgan ishlab chiqarish korxonasi mavjud. Keramika va metallga ishlov berishdan tortib, buyurtma bo'yicha kastom velosipedlar yasaydigan, qog'oz va plastmassani qayta ishlaydigan turli ustaxonalar, kovorking va apart-mehmonxona joy oladigan ikki qavatli bino qurilmoqda.

Har qanday fermada bo'lgani kabi, bu yerda ham hayvonlar — echkilar, g'ozlar va o'rdaklar, tovuqlar, kurka, to'tiqushlar, tuyaqushlar, quyonlar, ponilar, otlar, mushuk va itlarni ko'rish mumkin: aynan ular bu yerga ko'plab bolali oilalarni jalb qiladi.

Fermer xo'jaligi ongli iste´mol va zero-waste tamoyillariga amal qiladi. Barcha chiqindilar saralanadi va qayta ishlanadi — qayta ishlangan mahsulotlar biogumusga (organik chiqindilardan), qayta ishlangan plastmassadan tayyorlangan turli xil mahsulotlarga, shuningdek, qurilish materiallarini qayta ishlashga misol bo'la oladigan hududdagi binolarga aylanadi.

Ushbu g'ayrioddiy joyga kirish uchun Instagram´dagi rasmiy sahifa @kosa.farm orqali oldindan bron olish kerak.

# Багаж утерян. Советы юриста

*Bagaj yoʻqolsa. Huquqshunos maslahati*





**Мадина Турсунова**
*Madina Tursunova*
Юрист
Huquqshunos

***Потерять багаж, пожалуй, один из самых страшных снов. Но предупрежден – значит вооружен. Что делать, если при перелете был утерян или поврежден багаж? Куда обратиться? Возможно ли получить компенсацию? Разбираемся!***

*Bagajni yoʻqotish eng dahshatli tushlardan biri boʻlsa kerak. Ammo, ogohlantirilgan — bu qurollangan, degan ibora bor. Agar, parvoz paytida bagaj yoʻqolgan yoki shikastlangan boʻlsa, nima qilish kerak? Qayerga murojaat qilish kerak? Tovon puli olish mumkinmi? Keling, shu masalani koʻrib chiqamiz!*

Ru

**КАКОЙ БАГАЖ СЧИТАЕТСЯ УТРАЧЕННЫМ?**

Утраченным следует считать багаж, который при розыске не был обнаружен в течение 21 дня.

Утрата багажа – нарушение договора перевозки, при котором перевозчик по истечении установленного срока для доставки и срока розыска недоставленного багажа не может выдать правомерному получателю принятый к перевозке багаж независимо от того, произошло это вследствие его фактической утраты, засылки или ошибочной выдачи в промежуточном аэропорту.

По прибытии рейса в случае неприбытия багажа, наличия повреждений багажа или недостачи содержимого необходимо обратиться к уполномоченному сотруднику отдела розыска багажа аэропорта, который находится у стойки Lost & Found.

**КТО НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА УТРАЧЕННЫЙ БАГАЖ?**

Перевозчик несёт ответственность за сохранность зарегистрированного багажа с момента принятия его к перевозке и до выдачи получателю.

Гражданский и Воздушный кодексы устанавливают ответственность перевозчика за утрату или повреждение багажа с момента принятия его к перевозке и до выдачи получателю или передачи его другому уполномоченному лицу.

К примеру, статья 721 ГК РУз устанавливает ответственность перевозчика за повреждение и утрату, если он не докажет, что они были вызваны не по его вине. Воздушный кодекс в статьях 114-127 предусматривает ответственность перевозчика за утрату, недостачу и повреждение груза, багажа или находящихся при пассажире вещей. Ответственность перевозчика регулирует также Приказ начальника государственной инспекции Республики Узбекистан по надзору за безопасностью полетов «Об утверждении правил воздушных перевозок пассажира и багажа» от 29.06.2011 г., рег. номер 2238 (в дальнейшем Приказ).

Uz

**QANAQA BAGAJ YOʻQOTILGAN DEB HISOBLANADI?**

Qidiruvda 21 kun davomida topilmagan bagaj yoʻqotilgan, deb hisoblanishi kerak.

Bagajning yoʻqotilishi — tashuvchi yetkazib berish muddati tugagandan soʻng va yetkazib berilmagan bagajni qidirish muddati tugagandan soʻng, uning haqiqatdan yoʻqotilishi, yanglish yoʻnalishda joʻnatilishi yoki adashib oraliq aeroportda tushirilishi oqibatida sodir boʻlganidan qatʼiy nazar, tashish uchun qabul qilingan bagajni qonuniy qabul qiluvchiga topshira olmasligi tufayli tashish shartnomasining buzilishi.

Bagaj reys bilan birga yetib kelmaganda, bagajga shikast yetgan boʻlsa yoki ichidagi narsalarda kamomad aniqlansa, Lost & Found peshtaxtasi yonidagi aeroport bagaj qidiruvi boʻlimining vakolatli xodimiga murojaat qilish kerak.

**YOʻQOTILGAN YUK UCHUN KIM JAVOBGAR?**

Tashuvchi roʻyxatdan oʻtgan bagajning saqlanishi uchun u tashish uchun qabul qilingan paytdan boshlab qabul qiluvchiga topshirilguniga qadar javobgar.

Fuqarolik va Havo kodekslari tashuvchining bagajni tashishga qabul qilingan paytdan eʼtiboran, to qabul qiluvchiga berilguniga yoki boshqa vakolatli shaxsga topshirilguniga qadar uning yoʻqotilishi yoki shikastlanishi uchun javobgarligini belgilaydi.

Masalan, OʻzR Fuqarolik kodeksining 721-moddasida, tashuvchi zarar va yoʻqotilishda oʻzining aybi yoʻqligini isbot qilib bera olmasa, javobgarlik unga yuklatilishi belgilab qoʻyilgan. Havo kodeksining 114-127-moddalari tashuvchining yuk, bagaj yoki yoʻlovchi yonidagi narsalarning yoʻqotilishi, kamomadi va shikastlanishi boʻyicha javobgarligini belgilaydi. Shuningdek, tashuvchining javobgarligini Oʻzbekiston Respublikasi Parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshligʻining 2011 yil 29 iyundagi 2238-sonli (keyingi oʻrinlarda Buyruq) «Yoʻlovchi va bagajni havo orqali tashish qoidalarini tasdiqlash toʻgʻrisida» gi buyrugʻi ham tartibga soladi.





### Ru ЧТО ДЕЛАТЬ ПАССАЖИРУ ПРИ ПОВРЕЖДЕНИИ/УТЕРЕ БАГАЖА?

❶ Обратитесь к сотрудникам у стойки Lost and Found. Отдел розыска багажа (Lost & Found) аэропорта Ташкента находится в международном терминале (Т-2) и обслуживает пассажиров, прибывших международными и внутриреспубликанскими рейсами (в соответствии с правилами при утере/неприбытии/повреждении и недостаче содержимого багажа).

### Uz XOʻSH, BAGAJ SHIKASTLANGAN/ YOʻQOTILGAN BOʻLSA, YOʻLOVCHI NIMA QILISHI KERAK?

❶ ost & found peshtaxtasi yonidagi xodimlarga murojaat qiling. Toshkent aeroportining bagajni qidirish boʻlimi (Lost & Found) xalqaro terminalda (T-2) joylashgan boʻlib, xalqaro va respublika ichidagi reyslarda kelgan yoʻlovchilarga xizmat koʻrsatadi (Yoʻqotilgan / yetib kelmagan/shikastlangan va bagaj ichidagi narsalarda kamomad aniqlanganda qoidalarga muvofiq).



Ru

2 В случае утери уполномоченный сотрудник обязан провести местный поиск утраченного багажа после предъявления ему идентификационных документов. Это может быть посадочный талон, авиабилет, отрывной талон багажных бирок или квитанция об оплате сверхнормативного багажа при наличии (в соответствии с Правилами при утере/неприбытии/повреждении и недостаче содержимого багажа).

Uz

2 Bagaj yoʻqolgan taqdirda, identifikatsiya hujjatlari taqdim etilgandan soʻng, vakolatli xodim yoʻqolgan bagajning mahalliy qidiruvini amalga oshirishi shart. Bu hujjat bortga chiqish taloni, aviachipta, bagaj yorliqlarining yirtib olinadigan taloni yoki agar mavjud boʻlgan boʻlsa, ortiqcha yuk uchun toʻlov kvitansiyasi boʻlishi mumkin (Yoʻqotilgan /yetib kelmagan/ shikastlangan va bagaj ichidagi narsalarda kamomad aniqlanganda qoidalarga muvofiq)

Ru

3 Если багаж не будет найден после местного поиска, сотрудник обязан составить акт о неприбытии багажа (PIR – Property Irregularity Report), который служит документом, удостоверяющим потерю багажа, и предоставить пассажиру его копию. Далее производится розыск багажа, который длится 21 день. В акте указывается идентификационная карта типов багажа ИАТА, в которой указаны типажи сумок, чемоданов, обозначенные двухциферным кодом, а также цвета, обозначенные двухбуквенным кодом (в соответствии с правилами при утере/неприбытии/повреждении и недостаче содержимого багажа по прибытии и статьей 121 Воздушного Кодекса РУз).

4 В случае повреждения багажа сотрудник обязан составить акт о нарушении договора воздушной перевозки, который удостоверяет повреждение багажа, и передать пассажиру копию акта (в соответствии с статьёй 121 Воздушного кодекса и пунктом 134 Приказа).

5 Если розыск не дал положительных результатов, а также после составления акта о нарушении договора воздушной перевозки пассажир имеет право подать претензию перевозчику в пункте отправления или назначения по усмотрению заявителя претензии (в соответствии с статьями 122 и 123 Воздушного кодекса РУз.).

6 Претензии к перевозчику при внутренних перевозках могут быть предъявлены в течение шести месяцев (ст. 124 Воздушного кодекса РУз). Срок предъявления претензии:

- по претензиям о возмещении за недостачу или повреждение багажа, а также за просрочку в доставке багажа со дня их выдачи;
- по претензиям о возмещении за утрату багажа с момента истечения срока доставки;
- во всех остальных случаях – со дня наступления события, послужившего основанием для предъявления претензии.

Uz

3 Mahalliy qidiruvdan keyin bagaj topilmagan taqdirda, xodim bagajning yo‘qotilganini tasdiqlovchi hujjat bo‘lib xizmat qiladigan bagajning yetib kelmaganligi to‘g‘risidagi dalolatnoma (PIR – Property Irregularity Report) tuzishi va uning bir nusxasini yo‘lovchiga taqdim etishi shart. Shundan so‘ng, bagaj qidiruvi amalga oshiriladi va u 21 kun davom etadi. Dalolatnomada ikki raqamli kod bilan belgilangan sumkalar va chamadonlar turi, shuningdek, ikki harfli kod bilan belgilangan ranglar ko‘rsatilgan IATA bagaj turlarining identifikatsiya kartasi ko‘rsatib o‘tiladi (Yo‘qotilgan/yetib kelmagan/shikastlangan va bagaj ichidagi narsalarda kamomad aniqlanganda qoidalar va O‘zR Havo kodeksining 121-moddasiga muvofiq).

4 Bagajga shikast yetgan taqdirda, xodim yukning shikastlanganini tasdiqlovchi havo orqali tashish shartnomasining buzilgani to‘g‘risida dalolatnomani tuzishi va yo‘lovchiga dalolatnoma nusxasini berishi shart (Havo kodeksining 121-moddasi va Buyruqning 134-bandiga muvofiq).

5 Qidiruv ijobiy natija bermagan taqdirda, shuningdek, havo orqali tashish shartnomasi buzilgani to‘g‘risidagi dalolatnoma tuzilgandan so‘ng, yo‘lovchi xohishiga ko‘ra, parvoz boshlangan yoki tugagan manzilda tashuvchiga nisbatan da’vo qo‘zg‘atish huquqiga ega (O‘zR Havo kodeksining 122 va 123-moddalariga muvofiq).

6 Ichki tashishlarda tashuvchiga nisbatan da’volar olti oy ichida taqdim etilishi mumkin (O‘zR Havo kodeksining 124-moddasi).
Da’vo kiritish muddati hisobi:
- bagajning kamomadini yoxud yetkazilgan zararni qoplash, shuningdek, bagajni kechiktirilganligi uchun qo‘yiladigan talablar bo‘yicha – ular berilgan kundan boshlab;
- yo‘qotilgan bagaj zararini qoplash haqidagi da’volari bo‘yicha – yetkazib berish muddati tugaganidan keyin;
- boshqa barcha holatlarda — da’vo qilish uchun asos bo‘la oladigan voqea ro‘y bergan kundan e’tiboran boshlanadi.

Ru Перевозчик вправе принять к рассмотрению претензии по истечении срока, если признает уважительной причину пропуска претензионного срока (статья 124 Воздушного кодекса РУз).

7 Претензии перевозчику при международных перевозках должны быть предъявлены немедленно, но не позднее семи дней со дня получения багажа при повреждении; в течение двух лет при утере багажа со дня прибытия воздушного судна в место назначения или со дня прекращения перевозки (статья 125 Воздушного кодекса РУз).

8 Перевозчик обязан рассмотреть претензию в течение трех месяцев, и после получения ответа пассажир имеет право предъявить исковое заявление в суд по месту государственной регистрации транспортной организации, в которую была подана претензия (статья 35 Гражданского процессуального кодекса РУз).

**КАКОВ РАЗМЕР КОМПЕНСАЦИИ ПРИ УТЕРЕ БАГАЖА?**
Согласно Варшавской конвенции, обязательная минимальная сумма составляет 22 доллара за килограмм вне зависимости от ценности вещей, утерянных вместе с багажом.

Не рекомендуется перевозить в багаже ювелирные изделия, технику или другие ценные вещи. При потере материальных ценностей вместе с багажом пассажир может предъявить авиакомпании чеки для частичной или полной компенсации в зависимости от внутренних правил перевозки и политики авиакомпании в отношении утерянного багажа.

**ЧТО ДЕЛАТЬ, ЕСЛИ БАГАЖ ПОВРЕЖДЕН В РЕЗУЛЬТАТЕ ПЕРЕВОЗКИ?**
При получении поврежденного багажа необходимо немедленно обратиться в представительство авиакомпании для оценки ущерба и выплаты компенсации.

В случае вскрытия багажа и утери ценных вещей пассажир имеет право обратиться в компанию, предъявить билет и купон от багажа.

Uz Tashuvchi da’vo muddati oʻtkazib yuborilishi sababini asosli deb tan olsa, uni da’vo muddati tugaganidan keyin ham koʻrib chiqish uchun qabul qilishga haqlidir (OʻzR Havo kodeksining 124-moddasi).

7 Xalqaro tashishlarda tashuvchiga nisbatan da’volar zudlik bilan, lekin shikastlangan bagaj qabul qilingan kundan boshlab yetti kundan kechiktirmay; bagaj yoʻqolgan taqdirda, havo kemasi belgilangan manzilga kelgan kun yoki tashish toʻxtatilgan kundan boshlab ikki yil ichida taqdim etilishi kerak (OʻzR Havo kodeksining 125-moddasi).

8 Tashuvchi da’voni uch oy ichida koʻrib chiqishi shart va yoʻlovchi javobni olganidan keyin da’vo taqdim etilgan transport tashkiloti davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan joydagi sudga da’vo arizasini kiritish huquqiga ega (OʻzR Fuqarolik protsessual kodeksining 35-moddasi).

**BAGAJ YOʻQOTILGANDAGI KOMPENSATSIYA MIQDORI QANCHA?**
Varshava konvensiyasiga koʻra, bagaj bilan birga yoʻqolgan buyumlarning qiymatidan qat’iy nazar, majburiy minimal badal miqdori bir kilogramm uchun 22 dollarni tashkil qiladi.

Bagajda zargarlik buyumlari, texnika yoki boshqa qimmatbaho buyumlarni tashish tavsiya etilmaydi. Bagaj bilan birga moddiy boyliklar yoʻqotilgan taqdirda, yoʻlovchi aviakompaniyaning ichki tashish qoidalari va siyosatiga koʻra, yoʻqolgan bagaj uchun qisman yoki toʻliq kompensatsiya olish maqsadida aviakompaniyaga cheklarni taqdim etishi mumkin.

**BAGAJ TASHISH MOBAYNIDA SHIKASTLANGAN BOʻLSA NIMA QILISH KERAK?**
Qabul qilishda bagaj shikastlangan boʻlsa, zararni baholash va kompensatsiya uchun darhol aviakompaniya vakolatxonasiga murojaat qilish kerak.

Agar, bagaj ochilgan va qimmatbaho buyumlar yoʻqolgan boʻlsa, yoʻlovchi kompaniyaga murojaat qilish, chipta va bagaj kuponini taqdim etish huquqiga ega. Buyumlarning tavsifini taqdim etishi va ochilganlik alomatlari





Ru Необходимо предоставить описание вещей и предъявить багаж с признаками вскрытия (сорванные замки, разрезанный корпус). Авиакомпания составит акт о краже и проведет расследование. Специальная комиссия установит размер компенсации, выплачиваемой пассажиру при краже ценных вещей из багажа.

**ЧТО ДЕЛАТЬ, ЕСЛИ ПЕРЕПУТАЛИ БАГАЖ?**

Если пассажир забрал чужой багаж и хочет вернуть свой, он должен предъявить чужой чемодан в представительство авиакомпании, которая осуществила перевозку.

Представительство авиакомпании должно организовать поиск багажа и лица, чей багаж был предъявлен пассажиром. Пассажир предоставляет свой адрес и телефон для коммуникации с целью возврата багажа.

Uz (buzilgan qulf, kesilgan korpus) mavjud yukni koʻrsatishi kerak. Aviakompaniya oʻgʻirlik toʻgʻrisida dalolatnoma tuzadi va tergov oʻtkazadi. Maxsus komissiya bagajdan qimmatbaho buyumlar oʻgʻirlangan taqdirda, yoʻlovchiga toʻlab beriladigan kompensatsiya miqdorini belgilaydi.

**BAGAJ ADASHTIRILGANDA NIMA QILISH KERAK?**

Yoʻlovchi adashib begona bagajni olib ketgan va oʻzinikini qaytarib olmoqchi boʻlsa, u tashishni amalga oshirgan aviakompaniya vakolatxonasiga begona chamadonni taqdim etishi kerak.

Aviakompaniya vakolatxonasi yoʻlovchi tomonidan taqdim etilgan bagaj egasi boʻlgan shaxs va u olib ketgan bagaj qidiruvini tashkil etishi kerak. Yoʻlovchi bagajni qaytarish maqsadida, oʻz manzili va aloqa uchun telefon raqamini taqdim etadi.

Ru

**КОНТАКТЫ АВИАКОМПАНИИ В СЛУЧАЕ УТЕРИ/ПОВРЕЖДЕНИЯ БАГАЖА**

В случае, если багаж не будет найден в течение 21 дня, он будет считаться утраченным. Пассажиру необходимо предъявить претензию на возмещение убытков.

Претензии по нарушению договора перевозки багажа принимаются:

1. Представительствами Centrum Air, контакты и электронные адреса которых доступны по ссылке www.centrum-air.com/ru/contacts

2. Главным офисом Centrum Air, расположенным по адресу: г. Ташкент, ул. Буюк ипак йули, 262

3. На электронную почту

Авиакомпания обязана рассмотреть претензию и уведомить заявителя о принятом решении в течение трех месяцев со дня ее подачи, а при выполнении рейсов двумя авиакомпаниями и более – в течение шести месяцев.

Uz

**BAGAJ YOʻQOLGANDA/SHIKASTLANGANDA BOGʻLANISH UCHUN AVIAKOMPANIYA MAʼLUMOTLARI**

Bagaj 21 kun ichida topilmagan taqdirda, u yoʻqolgan, deb hisoblanadi. Yoʻlovchi zararni qoplash uchun da’vo kiritishi kerak. Bagajni tashish shartnomasining buzilishi boʻyicha da’volar: www.centrum-air.com/ru/contacts

1. Bogʻlanish raqamlari va elektron manzillari havolada koʻrsatilgan Centrum Air vakolatxonalari tomonidan

2. Toshkent shahar, Buyuk Ipak yo’li ko’chasi, 262-uy manzilida joylashgan Centrum Air kompaniyasining bosh ofisida

3. Elektron pochta orqali qabul qilinadi.

Aviakompaniya da’vo taqdim etilgan kundan boshlab uch oy ichida, reys ikki yoki undan ortiq aviakompaniya tomonidan amalga oshirilganda olti oy ichida uni koʻrib chiqishi va da’vo kirituvchiga xabar berishi shart.



**НОМЕРА ТЕЛЕФОНОВ ОТДЕЛА РОЗЫСКА БАГАЖА И СПРАВОЧНЫХ АЭРОПОРТОВ АО:**
*AJ aeroportlarining bagajni qidirish va ma’lumot berish boʻlimi telefon raqamlari:*

**ТАШКЕНТ / TOSHKENT**
*+998 78 140-29-14/2916;*
*+998 78 147-08-49*

**НАМАНГАН / NAMANGAN**
*+998 69 228-68-90*

**АНДИЖАН / ANDIJON**
*+998 74 228-18-31*

**ФЕРГАНА / FARGʻONA**
*+998 73 241-60-04*

**КАРШИ / QARSHI**
*+998 75 228-56-32*

**ТЕРМЕЗ / TERMIZ**
*+998 76 229-00-44*

**УРГЕНЧ / URGANCH**
*+998 62 224-59-59*

**НУКУС / NUKUS**
*+998 61 780-06-70;*
*+998 61 780-06-83*

**НАВОИ / NAVOIY**
*+998 79 539-38-62*

**БУХАРА / BUXORO**
*+998 65 228-91-09*



# Новый этап в мире цифрового страхования

*Raqamli sug'urta dunyosida yangi bosqich*

Ru NEO INSURANCE - инновационная цифровая страховая компания, взявшая на себя миссию совершенствования услуг страхования и предоставления клиентам уникальных решений. Компания предлагает широкий спектр услуг, охватывающих все аспекты страхования, начиная от традиционных видов, таких как ОСАГО, КАСКО, страхования здоровья и путешествий, и заканчивая, но не ограничиваясь страхованием банковских рисков, авиационного страхования и киберрисков.

### Онлайн страхование

Ключевым принципом NEO INSURANCE является полное онлайн-обслуживание клиентов, начиная от оформления полиса до получения страхового возмещения. Сайт и мобильное приложение компании обеспечивают простоту в использовании и прозрачность во всех этапах взаимодействия с клиентами. Пользователи имеют доступ к полной информации о своих полисах через так называемые «персональные кабинеты» на сайте компании, могут ознакомиться с условиями страхования и деятельностью компании. Это, в свою очередь, создает основу для долгосрочных и взаимовыгодных отношений.

Uz NEO INSURANCE — sug'urta xizmatlarini takomillashtirish va mijozlarga noyob yechimlarni taqdim etish vazifasini o'z zimmasiga olgan innovatsion raqamli sug'urta kompaniyasi. Kompaniya OSAGO, KASKO, sog'liq va sayohat sug'urtasi kabi an'anaviy turlardan boshlab, aviatsiya sug'urtasi, shuningdek, bank xatarlari va kiberxavflardan sug'urtalashgacha, shuningdek, bu bilan cheklanmagan holda, barcha jabhalarni qamrab oladigan keng ko'lamli xizmatlarni taklif etadi.

### Onlayn sug'urta

NEO INSURANCE ning asosiy tamoyili - mijozlarga polisni rasmiylashtirishdan, sug'urta badalini olishgacha bo'lgan barcha xizmatlarni to'liq onlayn tarzda ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Kompaniyaning veb-sayti va mobil ilovasi mijozlar bilan o'zaro munosabatlarning barcha bosqichlarida foydalanishning qulayligi va shaffofligini ta'minlaydi. Foydalanuvchilar kompaniya veb-saytidagi «shaxsiy kabinetlar» deb nomlangan bo'limda o'z polislari to'g'risida to'liq ma'lumotlarni olishlari, sug'urta shartlari va kompaniya faoliyati bilan tanishishlari mumkin. Bu – o'z navbatida sug'urtalovchi va mijoz o'rtasida ishonchni oshirishga yordam berib, uzoq muddatli va o'zaro manfaatli munosabatlar uchun zamin yaratadi.

### Страхование пассажиров

Yo'lovchilarni sug'urtalash

NEO INSURANCE предлагает комплексное страхование пассажиров, включающее в себя защиту от потери багажа, отмены поездки, а также возможные задержки вылета или прилета.

NEO INSURANCE yo'lovchilarni kompleks sug'urtalashni, jumladan, bagaj yo'qolib qolishidan, sayohat bekor qilinishidan va jo'nab ketish yoki qaytib kelishdagi kechikishlardan himoya qilishni taklif etadi.






### Страхование путешественников

NEO INSURANCE — это истинный компаньон для всех, кто предпочитает путешествовать с чувством уверенности и защищенности. В отличие от многих других страховых компаний, NEO INSURANCE поднимает планку качества сервиса, предоставляя расширенное покрытие, охватывающее широкий спектр ситуаций.
Одной из ярких особенностей компании является обширное медицинское покрытие, включающее хронические заболевания, стоматологическую помощь и несчастные случаи, произошедшие в любом состоянии человека. Neo Insurance понимает, что забота о здоровье важна в любой ситуации, и стремится предоставить клиентам максимально полное и надежное медицинское покрытие.

### Sayohatchilarni sug'urtalash

NEO INSURANCE — ishonch va xavfsizlik hissi bilan sayohat qilishni afzal ko'rgan har bir kishi uchun haqiqiy hamkor. Boshqa ko'plab sug'urta kompaniyalaridan farqli o'laroq, NEO INSURANCE keng ko'lamdagi vaziyat va holatlarni qamrab olgan holda, xizmat ko'rsatish sifatining yuqori darajasini belgilab bermoqda. Kompaniyaning alohida xususiyatlaridan biri bu, surunkali kasalliklar, stomatologik yordam, tibbiy diagnostika va fuqarolarning har qanday holatdagi sodir bo'lgan baxtsiz hodisalarini o'z ichiga olgan katta ko'lamdagi tibbiy qoplamadir. NEO INSURANCE har qanday vaziyatda ham sog'liqni saqlash muhimligini tushungan holda, mijozlarga eng to'liq va ishonchli tibbiy himoyani taqdim etishga intiladi.

### Приём обращений

Имея наивысший рейтинг платежеспособности от SNS Ratings, Компания также активно внедряет инновации в области обработки заявлений на получение страховых возмещений. Онлайн-прием обращений, обработка данных и урегулирование страховых случаев — все это осуществляется через удобный веб-сайт компании и интуитивно понятное мобильное приложение.Все это предоставляет клиентам свободу управления своим портфелем страховых услуг посредством мобильного телефона.
NEO INSURANCE – всегда на Вашей стороне!

### Murojaatlarni qabul qilish

SNS Ratings´ning eng yuqori to'lov qobiliyati darajasiga ega bo'lgan holda NEO INSURANCE, sug'urta da´volarini qayta ishlash sohasida ham innovatsiyalarni joriy etishni faol tarzda amalga oshirmoqda. Murojaatlarni onlayn qabul qilish, ma´lumotlarni qayta ishlash va sug'urta holatlarini hal qilish — bularning barchasi kompaniyaning qulay veb-sayti va soddalashtirilgan mobil ilovasi orqali amalga oshiriladi. Bu - mijozlarga sug'urta xizmatlari bo'yicha barcha masalalarni mobil telefon orqali boshqarish erkinligini beradi.
NEO INSURANCE — doimo Siz tarafda!

**71 202-55-66**

Адрес: г.Ташкент, ул. Мирабад, 9А
Manzil: Toshkent shahri, Mirobod ko'chasi, 9A

**Музаффар Юсупов**

*Muzaffar Yusupov*

# Путешествие автостопом перезагрузило мою жизнь

*Avtostop bilan qilingan sayohat hayotimni yangiladi*

Ru Автостоп – это уникальный способ путешествовать, позволяющий взглянуть на мир с иной стороны, познакомиться с новыми людьми, посетить ранее неизведанные места и в целом испытать незабываемые впечатления. Но как организовать такое путешествие, чтобы действительно получить от него удовольствие и вернутся домой в целости и сохранности? Мы пообщались с Музаффаром Юсуповым – фотографом, совершившим путешествие по всей Сурхандарьинской области Узбекистана  исключительно автостопом. О впечатлениях от поездки, трудностях, с которыми пришлось столкнуться, и о том, как путешествие может изменить жизнь, – эксклюзивно в нашем материале.

Uz Avtostop bu — dunyoga boshqa nigoh bilan qarash, yangi odamlar bilan tanishish, ilgari oʻrganilmagan joylarga tashrif buyurish va umuman unutilmas taassurotlarni boshdan kechirishning noyob usuli. Ammo, undan zavq olib, uyga sogʻ-omon qaytish uchun bunday sayohatni qanday tashkil qilish kerak? Biz Oʻzbekistonning butun Surxondaryo viloyati boʻylab faqat avtostop bilan sayohat qilgan fotograf Muzaffar Yusupov bilan suhbatlashdik. Sayohat taassurotlari, boshdan kechirilgan qiyinchiliklar va sayohat hayotni qanday oʻzgartirishi haqida —bizning eksklyuziv materialimizda.









## Фотография как часть жизни

Ru Я с детства увлекался фотографией – снимал на камеру все, что видел. Чаще всего фотоаппарат доставался мне на праздниках и каких-то школьных мероприятиях. Позже, уже в колледже, появилось желание подойти к этому увлечению осознанно, и я решил работать ассистентом профессионального фотографа. Это переросло в коммерческие фотосъемки, даже устроился в компанию United Soft, занимающуюся 3D-визуализацией. Наконец, сегодня у меня свое агентство по подбору локаций для съемок кинофильмов, клипов и рекламы XOOOP AGENCY.

## *Suratga olish — hayotning bir qismi*

Uz Bolaligimdan suratga olishga qiziqqanman, barcha koʻrgan narsalarimni suratga olganman. Kamera koʻpincha faqat bayramlarda va ayrim maktab tadbirlarida qoʻlimga tushardi. Keyinchalik, kollejda oʻqib yurgan davrimda bu qiziqishimga ongli ravishda yondashish istagi paydo boʻldi va men professional fotosuratchining assistenti sifatida ishlashga qaror qildim. Bu tijoriy fotosuratlarni olishga aylanib ketdi, hatto 3D-vizuallashtirish bilan shugʻullanadigan United Soft kompaniyasiga ishga kirdim. Nihoyat, bugungi kunda filmlar, kliplar va reklamalarni suratga olish uchun joy tanlab berish xizmatini koʻrsatadigan XOOOP AGENCY agentligim bor.







# О возникновении тяги к путешествиям

## *Sayohat qilishga ishtiyoqning paydo boʻlishi haqida*

Ru Когда-то во время работы в компании в процессе монтажа одного клипа я увидел неповторимый кадр: водопад вблизи Чарвака. На тот момент я начал активно развивать сообщество любителей фотоискусства InstaMeet. Недолго думая я предложил всему комьюнити отправиться в поход, чтобы сфотографировать этот водопад. Предложение встретило поддержку, и сейчас я могу сказать, что все мои путешествия начались именно с этого кадра водопада.

Uz Kompaniyada ishlab yurgan paytlarimda bir klip montaji jarayonida betakror kadrga koʻzim tushdi, unda Chorvoq yaqinidagi sharshara aks etgandi. Oʻsha vaqtda men fotosan’at ixlosmandlari jamoasi InstaMeet’ni faol tarzda rivojlantirayotgan edim. Koʻp oʻylab oʻtirmasdan butun jamoamizga ushbu sharsharani suratga olish uchun safarga chiqishni taklif etdim. Taklifim qoʻllab-quvvatlandi va hozir aytishim mumkinki, mening barcha sayohatlarim aynan shu sharshara kadridan boshlangan.









# О проекте Opening New Horizons

Ru Поход к водопаду положил начало группе, с которой мы продолжили наши путешествия, выкладывая в социальных сетях фотоотчеты. Постепенно охваты росли, стали появляться комментарии с вопросами о локациях. Случалось даже, что люди не верили, что в Узбекистане есть такие виды. Думаю, причина в том, что фотографии, сделанные во время походов, обычно представляют собой любительскую съемку, а мы подошли к этому вопросу более серьезно, отчего наши работы принимали за зарубежные.

Сообщество разрасталось, и спустя пару таких встреч я дал нашему комьюнити название – Opening New Horizons. Нашей отличительной чертой была некоторая спонтанность: мы никак не планировали путешествие. Просто выбиралась конечная точка, и мы не задумывались о том, как доберемся и какие трудности могут ожидать, каждый из нас был готов к любой авантюре.

# *Opening New Horizons loyihasi haqida*

Uz Sharsharaga uyushtirilgan safar keyinchalik sayohatlarni davom ettirgan va ular haqida ijtimoiy tarmoqlarda fotohisobotlarni nashr etib borgan guruhni shakllantirdi. Asta-sekin qamrov o‘sib bordi, manzillar haqida savollar bilan sharhlar paydo bo‘la boshladi. Hatto shunday ham bo‘ldiki, odamlar O‘zbekistonda bunday manzaralar borligiga ishonmadi. O‘ylaymanki, buning sababi shundaki, bunday sayohatlarda fotosuratlarni odatda havaskorlar tomonidan olinadi, biz esa bu masalaga jiddiyroq yondashdik va ishlarimizni chet elda olingan suratlar bilan adashtirishdi.

Uyushmamiz kengaydi va bir nechta bunday uchrashuvlardan so‘ng men jamoamizga “Opening New Horizons” nomini berdim. Bizning ajralib turadigan xususiyatimiz dabdurustlik edi: sayohatni oldindan rejalashtirmas edik. Shunchaki so‘nggi manzilni tanlab, qanday yetib borish va bizni qanday qiyinchiliklarga duch kelishimiz mumkinligi haqida o‘ylamas edik, har birimiz istalgan sarguzashtga tayyor edi.









# О путешествии автостопом

Ru Это действительно было самое спонтанное решение из всех, которые я когда-либо принимал. В университетские годы мне было сложно совме--щать учебу и работу – времени не хватало. Во мне победило творческое нутро, и я принял решение забрать документы из вуза, чтобы всего себя посвятить фотоискусству.

Спустя неделю после этого важного и сложного решения я понял, что мне необходимо освежиться и очистить голову от мыслей. На тот момент у меня уже был стаж путешественника в пять лет: я объездил всю Ташкентскую область, был в Сурхандарье и Кашкадарье и хорошо знал, как вести себя в горной местности во избежание непредвиденных ситуаций.

Был куплен билет до Байсуна, но мыслей об автостопе еще не было. Я просто направлялся к своему знакомому в Сурхандарьинскую область, у которого часто оставался на пару дней отдыха. Обычно он меня и отвозил в Байсун, однако в этот раз я решил добраться туда самостоятельно. Знакомый довёз меня до главной трассы, а далее планировалось поймать попутку.

С собой у меня был большой походный рюкзак, в котором лежали палатка, спальный мешок, еда и сменная одежда. Вдобавок при мне была борода, очки, кепка, высокие боты и шорты – всем своим видом я говорил о том, что турист.

Минут через 15 остановилась машина с тремя девушками, направляющимися в Байсун на свадьбу. Они меня с легкостью взяли к себе, но и в этот момент у меня еще не было плана путешествовать автостопом. Высадив меня в городе, девушки наотрез отказались брать деньги, и вот тут я уже задумался: «А что если попробовать объехать Сурхандарью автостопом?». И через 20 минут я направлялся на другом автомобиле в Денау. Так за 10 дней я проехал почти тысячу километров, а денег потратил только на несколько бутылок воды.

В путешествии мне встречались действительно хорошие люди, которые приглашали погостить в их доме, и ни разу не случилось так, чтобы не дали в дорогу еды. Возможно, мне повезло, но я считаю, что у нас добродушный народ, готовый встретить любого человека как родного и помочь ему. Жалею ли я о десяти потраченных днях? Нет. Впечатления от путешествия автостопом перезагрузили мою жизнь.

# *Avtostop bilan sayohat qilish haqida*

Uz Bu haqiqatan ham men qabul qilgan eng tuyqus qaror edi. Talabalik davrimda ta'lim bilan ishni birga olib borish men uchun qiyin edi — vaqtim yetmasdi. Oxir-oqibat qalbimdagi ijodkorlik gʻalaba qozondi va oʻzimni fotosan'atiga bagʻishlash uchun universitetdan hujjatlarimni qaytarib olishga qaror qildim.

Ushbu muhim va murakkab qarordan bir hafta oʻtib, tetiklashish va boshimni fikrlardan tozalashim kerakligini angladim. Oʻsha paytda besh yillik sayohat tajribasiga ega edim: men butun Toshkent viloyatini aylanib chiqqan, Surxondaryo va Qashqadaryoda boʻlgan va kutilmagan vaziyatlarning oldini olish uchun togʻli hududlarda oʻzimni qanday tutishni yaxshi bilar edim.

Boysunga chipta sotib oldim, ammo avtostop haqida hali bironta ham fikr yoʻq edi. Shunchaki tez-tez bir necha kunga dam olishga borib kelgan Surxondaryo viloyatidagi tanishimnikiga ketayotgan edim. Odatda u meni Boysunga olib borib qoʻyardi, ammo bu safar u yerga oʻzim yetib olishga qaror qildim. Tanishim meni katta yoʻlga olib borib qoʻydi, u yogʻiga esa oʻsha tomonga ketayotgan mashinada yetib olishni rejalashtirgan edim.

Yonimda chodir, uxlash uchun qopkoʻrpa, oziq-ovqat va kiyim-kechaklarim solingan katta safar yuk xaltasi bor edi. Ustiga-ustak, soch-soqolim oʻsgan, egnimda koʻzoynak, kepka, qoʻnji baland botlar va shorti — aftiangorim sayohatchi ekanimdan darak berib turardi.

15 daqiqadan soʻng yonimda Boysunga toʻyga ketayotgan uch qiz mingan mashina toʻxtadi. Ular meni oʻzlari bilan olib ketdi, lekin oʻsha paytda ham avtostop bilan sayohat qilish rejam yoʻq edi.

Meni shaharga olib borgan qizlar pul olishdan qat'iyan bosh tortishdi va shunda: "Surxondaryoni avtostop bilan aylanib chiqsammikan?" deb oʻylab qoldim. Oradan 20 daqiqa oʻtib, men boshqa mashinada Denovga ketayotgan edim. Shu tarzda, 10 kun ichida deyarli ming kilometr masofani bosib oʻtdim, faqat bir necha shisha suvga pul sarfladim.

Sayohatim davomida haqiqatan ham yaxshi odamlarni uchratdim, ular oʻz uylarida mehmon qilib, oʻzim bilan yoʻlda oziq-ovqat berib yuborishardi. Balki, omadim chopgandir, ammo xalqimiz mehmondoʻst va har qanday odamni qadrdoniday kutib olib, begʻaraz yordam berishga tayyor deb hisoblayman.Oʻn kun vaqtimni yoʻqotganidan afsuslanamanmi? Yoʻq. Avtostop bilan qilgan sayohatim taassurotlari hayotimni yangiladi.







# О безопасности

Ru Если вы хотите путешествовать автостопом, обязательно выберите оптимальное для этого время года – весну или лето.

Не рекомендую отправляться в путь совсем без денег, так как автостоп – это всегда про неожиданность. Здесь невозможно продумать каждый шаг, и наличные точно не будут лишней частью багажа.

Обязательно возьмите с собой запасной комплект одежды. Помните, что автостоп – это путешествие без комфортных условий, но не стоит ограничивать себя в гигиене.

Всегда берите с собой еду и воду: не надо себя изнурять, ведь от путешествия вы должны получить удовольствие.

Будьте готовы к тому, что никогда не будете точно знать, когда вернетесь обратно: может быть, ваша поездка завершится через пять дней, а может, – через две недели.



## *Xavfsizlik haqida*

Uz Avtostop bilan sayohat qilmoqchi boʻlsangiz, yilning eng maqbul mavsumi — bahor yoki yozni tanlang.

Safarga umuman pulsiz chiqishni tavsiya qilmayman, chunki avtostop — har doim kutilmagan voqealardir. Unda har bir qadamni oldindan rejalashtirishning iloji yoʻq va naqd pul, albatta, ortiqcha yuk boʻlmaydi.

Oʻzingiz bilan albatta zaxira kiyim-bosh oling. Avtostop bu — qulay sharoitlarsiz sayohat boʻlsa-da, lekin oʻzingizni gigienada cheklamang.

Har doim oʻzingiz bilan oziq-ovqat va suv oling: oʻzingizni holdan toydirmang, axir sayohatdan zavq olishingiz kerak.

Qachon qaytib kelishingizni hech qachon aniq bilmasligingizga tayyor boʻling. Ehtimol, sayohatingiz besh kundan keyin yoki ikki hafta oʻtib tugashi mumkin.





# О популярности автостопа в Узбекистане

Ru Я знаю несколько сообществ, которые ездили по Узбекистану автостопом. Кто-то путешествовал от Нукуса до Бухары, другие выбирали более сложный маршрут Ташкент – Хива. Думаю, такой вид путешествий сегодня очень актуален, ведь это стало технически проще осуществить, нежели еще десять лет назад. Однако я не могу дать точную информацию о существовании какого-то определенного комьюнити – я с ним не знаком. Обычно это небольшие группы людей, что объясняется в том числе и наличием свободного времени: чтобы отправиться в путешествие автостопом, в вашем распоряжении должна быть минимум неделя, а для большинства людей это роскошь.

# *O'zbekistonda avtostopning ommabopligi haqida*

Uz Men O'zbekistonda avtostop bilan yuradigan bir nechta jamoalarni bilaman. Kimdir Nukusdan Buxorogacha sayohat qilgan, boshqalari esa qiyinroq Toshkent — Xiva yo'nalishini tanlagan. Nazdimda, bugungi kunda bunday sayohat juda dolzarb, chunki texnik jihatdan buni amalga oshirish o'n yil avvalgiga qaraganda osonlashdi. Ammo muayyan bir uyushmaning mavjudligi haqida aniq ma'lumot bera olmayman — ular bilan tanish emasman. Odatda bu bo'sh vaqtga ega odamlarning kichik guruhi: avtostop bilan sayohat qilish uchun ixtiyoringizda kamida bir hafta bo'lishi kerak, bu esa ko'pchilik uchun isrofgarchilikni anglatadi.



# О дальнейших планах

Ru

Сейчас я пока не планирую очередное путешествие, поскольку не имею свободного времени – большая его часть уходит на семью и работу. Так что считаю, что отправился в путешествие, перевернувшее мою жизнь, в самый нужный момент.

Но если у меня появится хотя бы малейшая возможность, я без раздумий отправлюсь в дорогу вновь. И не важно, каков будет маршрут. Соберу рюкзак и выдвинусь туда, куда глаза глядят.

Поэтому, если у вас зародилась мысль поехать куда-то автостопом, сделайте это именно сейчас, ведь возможно, что это самый подходящий момент и другой возможности у вас не будет.

# *Kelgusi rejalar haqida*

Uz

Vaqtimning katta qismi oilam va ishlarimga sarflaganim, bo'sh vaqtim yo'qligi uchun hozirgi paytda safarga borishni rejalashtirmayapman. Shunday qilib, hayotimni o'zgartirgan sayohatga eng kerakli vaqtda chiqqanman deb hisoblayman.

Agar kichik bo'lsa ham imkoniyat tug'ilsa, ikkilanmasdan yana yo'lga chiqaman. Yo'nalish muhim emas. Safar xaltamni to'plab, boshim oqqan tomonga otlanaman.

Shuning uchun, agar biron bir joyga avtostop bilan borish ishtiyoqi tug'ilgan bo'lsa, hoziroq yo'lga chiqing, chunki bu eng maqbul vaqt bo'lib, bunday imkoniyat boshqa bo'lmasligi mumkin.






# FUN&SUN: открывайте мир с уверенностью!

## *FUN&SUN: dunyoni ishonch bilan kashf qiling!*

В эпоху стремительного развития туристической индустрии каждый из нас нуждается во вдохновляющем путеводителе, предлагающем уникальные решения для путешествий. Туристический бренд FUN&SUN с уверенностью поднимает планку в сфере туризма, даря клиентам неповторимые впечатления.

*Sayyohlik sohasi jadal rivojlanayotgan davrda har birimiz noyob sayohatlarni taklif etuvchi ilhombaxsh qo‘llanmaga ehtiyoj sezamiz. FUN&SUN sayyohlik brendi mijozlariga betakror taassurotlarni tuhfa etib, turizm sohasida xizmat darajasini ishonch bilan yuqori ko‘tarmoqda.*

Ru

Один из ведущих игроков туристического рынка Центральной Азии – компания FUN&SUN стала известна в Узбекистане с 2020 года, а в мире – еще с 1980-х годов под неймингом TUI. Сегодня она включает в себя сотни туристических агентств на территории России и десятки – в Казахстане, Кыргызстане и Узбекистане. Перед ее основателями еще в не таком далеком 2009 году стояла благородная цель: обеспечить превосходное качество сервиса на всем пути клиента – от поиска тура до возвращения домой.

Uz

Markaziy Osiyo turizm bozorining yetakchi ishtirokchilaridan biri — FUN&SUN kompaniyasi O‘zbekistonda 2020-yildan, dunyoda esa 1980-yillardan beri TUI nomi bilan tanilgan. Bugungi kunda, u Rossiya hududida yuzlab, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va O‘zbekistonda o‘nlab sayyohlik agentliklarini o‘z ichiga oladi. Juda olis bo‘lmagan 2009-yilda, uning asoschilari oldida oliyjanob maqsad — mijozning butun yo‘li bo‘ylab o‘ziga mos sayohatni qidirishidan, to uyiga qaytib kelishigacha bo‘lgan davrda a’lo darajadagi xizmat sifatini yaratish turar edi.

**Марат Ахмеджанов**
*Marat Ahmedjanov*

Владелец франчайзинговых офисов агентства в Узбекистане и Казахстане

Agentlikning O'zbekiston va Qozog'istondagi franchayzing ofislari egasi

Ru

По сей день команда профессионалов помогает людям окунуться в атмосферу того или иного места, прочувствовать его сердце и душу.

Владелец франчайзинговых офисов агенства в Узбекистане и Казахстане Марат Ахмеджанов отмечает следующее: «Каков бы ни был выбор клиента, FUN&SUN всегда готов обеспечить высокое качество предоставляемых услуг, надежность, стабильность и безопасность. Мы стремимся быть гарантом вашего возвращения из путешествия с полным багажом позитивных впечатлений и отличных историй».

Компания подходит к организации туров исходя из различных параметров. Представьте, что вы держите в руках детали детского лего: страна и курорт, продолжительность тура, дата вылета, категория отеля, тип питания, количество ночей, стоимость… В результате вы получаете идеальный отпуск и абсолютное избавление от забот.

Uz

Professionallar jamoasi bugungi kunga qadar insonlarga muayyan bir joyning muhitidan bahra olishda, uning qalbi va ruhini his etishda yordam berib kelmoqda.

Agentlikning O'zbekiston va Qozog'istondagi franchayzing ofislari egasi Marat Ahmedjanov quyidagilarni ta'kidladi: "Mijozning tanlovidan qat'iy nazar, FUN&SUN taqdim etilayotgan xizmatlarning yuqori sifati, ishonchliligi, barqarorligi va xavfsizligini ta'minlashga har doim tayyor. Biz sayohatdan ijobiy taassurotlar va ajoyib kechinmalar bilan qaytishingizning kafolati bo'lishga intilamiz."

Kompaniya turlarni tashkil etish masalasiga turli parametrlar asosida yondashadi. Tasavvur qiling, qo'lingizda bolalar Lego o'yinchog'ining detallari bor: mamlakat va kurort, sayohat davomiyligi, jo'nash sanasi, mehmonxona toifasi, taom turi, kechalar soni, narxi… Natijada, mukammal ta'tilga ega bo'lib, tashvishlardan mutlaqo xalos bo'lasiz.


Специальные акции, предлагающие невероятную скидку, позволят открыть мир не только с удовольствием, но и выгодой:

Ajoyib chegirmalarni taklif qiladigan maxsus aksiyalar esa dunyoni nafaqat zavq bilan, balki hamyonbop narxlarda kashf etish imkonini beradi:

| | | |
|---|---|---|
| Дубай<br>*Dubay* | 5 дней<br>*5 kun* | от 6 млн сумов<br>*6 mln so'mdan boshlab* |
| Стамбул<br>*Istanbul* | 5 дней<br>*5 kun* | от 7 млн сумов<br>*7 mln so'mdan boshlab* |
| Шарм-эль-Шейх<br>*Sharm-Al-Shayx* | 7 дней<br>*7 kun* | от 7 млн сумов<br>*7 mln so'mdan boshlab* |
| Гоа<br>*Goa* | 7 дней<br>*7 kun* | от 9 млн сумов<br>*9 mln so'mdan boshlab* |

Бронь туров по номеру:
Sayohatni bron qilish uchun telefon raqami:

93 500-11-25

Горящие туры:
Qaynoq turlar:

Офис на Ц-6:
ул. Осиё, дом 89, м. «Минор»
Ориентир:
ресторан «На небе»

Офис на Ц-1:
ул. Садыка Азимова, дом 63
Ориентир:
посольство Японии

Офис на Шевченко:
ул. Шевченко, дом 24
Ориентир:
Музей искусств

Premium-офис:
ул. Кары-Ниязова, дом 11, ЖК Akay City
Ориентир:
кофейня Pie Republic

S-6 dagi ofis:
Osiyo ko'chasi, 89-uy, «Minor» metrosi.
Mo'ljal:
«Na nebe» restorani

S-1 dagi ofis:
Sodiq Azimov ko'chasi, 63-uy
Mo'ljal:
Yaponiya elchixonasi

Shevchenkodagi ofis:
Shevchenko ko'chasi, 24-uy
Mo'ljal:
San'at muzeyi

Premium-ofis:
Qori-Niyozov ko'chasi, 11-uy, Akay City TJM
Mo'ljal:
Pie Republic qahvaxonasi



# Своими глазами: события, достойные внимания

*O‘z ko‘zimiz bilan: e’tiborga loyiq voqealar*



## Ru Dubai Shopping Festival

**Когда:** 8 декабря 2023 г. – 14 января 2024 г.
**Где:** Дубай, ОАЭ
Праздник и свет, шопинг и гламур, спорт и приключения, блюда разных народов и космополитическая культура сольются воедино на 29-м Дубайском торговом фестивале. Он встретит посетителей невероятными скидками, красочными шоу-программами, розыгрышами и приятными сюрпризами.

## Uz Dubai Shopping Festival

**Qachon:** 2023-yil 8-dekabr – 2024-yil 14-yanvar
**Qayerda:** Dubay, BAA
29-Dubay savdo festivalida bayram va yorug'lik, shoping va glamur, sport va sarguzashtlar, turli xalqlar taomlari va kosmopolit madaniyat mujassam bo'ladi. U mehmonlarni hayratlantiruvchi chegirmalar, rang-barang shou dasturlari, sovrinli o'yinlar va yoqimli syurprizlar bilan kutib oladi.

---

## Ru Новогодний поп-ап маркет от Provocateur Group в пространстве «Севкабель Порт»

**Когда:** 28 декабря 2023 г. – 8 января 2024 г.
**Где:** Санкт-Петербург, Россия
На две недели пространство Севкабель Порт «Цех» превратится в волшебную страну, позволив взрослым окунуться в воспоминания детства, а детям – почувствовать себя сказочными героями. Событие объединит локальные бренды, визуальное оформление, музыку, мастер-классы и гастрономическое разнообразие. На этом маркет-фестивале можно будет незабываемо провести время всей семьей, наполниться вдохновением и прочувствовать все оттенки самого теплого праздника.



## Uz Provocateur Group tomonidan «Sevkabel Port» maydonida tashkil etiladigan Yangi yil pop-ap marketi

**Qachon:** 2023-yil 28-dekabr – 2024-yil 8-yanvar
**Qayerda:** Sankt-Peterburg, Rossiya
«Sevkabel Port» maydoni ikki haftaga kattalarga bolalik xotiralariga qaytish, bolalarga esa o'zlarini ertak qahramonlaridek his qilish imkonini beradigan sehrli mamlakatga aylanadi. Tadbir o'zida mahalliy brendlar, vizual bezaklar, musiqa, mahorat darslari va gastronomik xilma-xillikni mujassam qiladi. Ushbu market-festivalda butun oila bilan unutilmas vaqt o'tkazib, ilhom olish va eng yoqimli bayramning barcha rang-barangligini his etish mumkin.

## Ru Sunburn Festival

**Когда:** 28 декабря 2023 г. – 1 января 2024 г.
**Где:** Гоа, Индия
Фестиваль электронной музыки Sunburn начиная с 2007 года ежегодно привлекает сотни тысяч людей со всего мира. За эти годы он стал крупнейшим музыкальным событием Азии, в рамках которого выступали такие известные исполнители, как Paul Oakenfold, David Guetta, Carl Cox и многие другие.

## Uz Sunburn Festival

**Qachon:** 2023-yil 28-dekabr – 2024-yil 1-yanvar
**Qayerda:** Goa, Hindiston
Sunburn elektron musiqa festivali 2007 yildan buyon har yili butun dunyodan yuz minglab odamlarni jalb qilmoqda. Yillar davomida u Osiyodagi eng yirik musiqiy tadbirga aylandi, uning sahnasida Paul Oakenfold, David Guetta, Carl Cox va boshqa ko'plab taniqli san´atkorlar chiqish qilganlar.







## Ru Концерт «Орган в планетарии. Рождество» от Amadeus Concerts

**Когда:** 29, 30 декабря 2023 г.; 7 января 2024 г.
**Где:** Санкт-Петербург, Россия
В Планетарии № 1 слушателям предлагают отправиться в космическое путешествие под музыку великих классиков: И.С. Баха, Г. Пёрсела, В. Моцарта, Г. Генделя, А. Вивальди. Пребывая в культурной столице, не стоит упускать возможность погрузиться в атмосферу созерцания, поистине медитативного слушания музыкальных шедевров под впечатляющее визуальное сопровождение.

Билеты можно приобрести на сайте организаторов: amadeusconcerts.ru

## Uz Amadeus Concerts´ning «Planetariydagi organ. Rojdestvo» konserti

**Qachon:** 2023-yil 29–30-dekabr; 2024-yil 7-yanvar
**Qayerda:** Sankt-Peterburg, Rossiya
1-Planetariyda tinglovchilarga buyuk klassiklar- I.S.Bax, G.Pyorsel, V.Motsart, G.Gendel, A.Vivaldi musiqalarining sadolari ostida kosmik sayohatga chiqish taklif etiladi. Madaniyat poytaxtiga tashrif buyurganda, ta´sirchan vizual hamrohlik bilan musiqiy durdonalarni chinakam meditatsiya tarzida tinglash, mushohada muhitiga sho'ng'ish imkoniyatini boy bermang.

Chiptalarni tashkilotchilar veb-saytida xariq qilish mumkin: amadeusconcerts.ru



## Ru Qatar International Food Festival 2024

**Когда:** 10-20 января 2024 г.
**Где:** Доха, Катар
Катарский международный гастрономический фестиваль ежегодно собирает самые громкие имена в сфере гастрономического туризма, предлагая получить уникальные кулинарные впечатления. Организаторы и участники фестиваля предлагают ознакомиться с последними тенденциями – от стрит-фуда до высокой кухни. Гурманов ожидают шоу-программа, интерактивные мастер-классы, кулинарный театр и развлекательная программа для посетителей разных возрастов.

## Uz Qatar International Food Festival 2024

**Qachon:** 2024-yil 10–20-yanvar
**Qayerda:** Doxa, Qatar
Qatar xalqaro gastronomik festivali har yili gastronomik turizm sohasining eng nufuzli vakillarini to'plab, noyob pazandachilik taassurotlarini olishga taklif etadi. Festival tashkilotchilari va ishtirokchilari strit-fuddan tortib to yuksak pazandachilik san'atigacha bo'lgan so'nggi tendensiyalar bilan tanishtiradilar. Bundan tashqari, shinavandalarni shou dasturi, interaktiv mahorat darslari, pazandachilik teatri va turli yoshdagi mehmonlar uchun mo'ljallangan ko'ngilochar dasturlar kutadi.

---

## Ru AFC Asian Cup Qatar

**Когда:** 12 января – 18 февраля 2024 г.
**Где:** Доха, Катар
Кубок Азии AFC в Катаре вновь обещает стать знаменательным событием, в рамках которого лучшие футбольные команды сойдутся в битве. Турнир состоится на восьми стадионах города и участие в нем примут 24 национальные команды. Президент AFC шейх Салман бин Ибрагим Аль Халифа отмечает, что предстоящее событие станет зрелищем, которого еще не было в истории азиатского футбола.

## Uz AFC Asian Cup Qatar

**Qachon:** 2024-yil 12-yanvar – 18-fevral
**Qayerda:** Doxa, Qatar
Qatarda bo'lib o'tadigan AFC Osiyo kubogi yana bir bor eng yaxshi futbol jamoalari kurashadigan muhim voqea bo'lishi kutilmoqda. Turnir shaharning sakkizta stadionida bo'lib o'tadi va unda 24 ta milliy jamoa ishtirok etadi. AFC prezidenti shayx Salmon bin Ibrohim Al Halifaning ta'biriga ko'ra, bo'lajak tadbir Osiyo futboli tarixida hali ko'rilmagan tomoshaga aylanadi.



## Ru Emirates LitFest

**Когда:** 31 января – 6 февраля 2024 г.
**Где:** Дубай, ОАЭ
Международный литературный фестиваль, спонсируемый крупнейшими эмиратскими компаниями. В его программу ежегодно входят более 250 мероприятий, привлекающих около 44 000 посетителей.
Программу мероприятий можно найти на официальном сайте: emirateslitfest.com

## Uz Emirates LitFest

**Qachon:** 2024-yil 31-yanvar – 6-fevral
**Qayerda:** Dubay, BAA
Amirlikning yirik kompaniyalari homiyligida tashkil etiladigan xalqaro adabiyot festivali. Festival dasturiga har yili 250 dan ortiq tadbirlar kiradi va 44 000 ga yaqin kishi tashrif buyuradi.

Tadbirlar dasturi bilan rasmiy veb-saytda tanishish mumkin: emirateslitfest.com






## Ru Шоу «1001 ночь»

**Когда:** круглый год.
**Где:** Шарм-эль-Шейх
Дворец «1001 ночь» окунет посетителей в настоящую восточную сказку. Каждый вечер этот торгово-развлекательный центр превращается в театральную площадку, на которой можно увидеть потрясающее шоу, узнать историю Египта, насладиться завораживающими ритмами восточных танцев и выступлениями факиров. Там вы точно сможете погрузиться в загадки древности и атмосферу арабского Востока.

Повествовательная часть программы проходит на нескольких языках, в числе которых английский и русский.

## Uz «1001 kecha» shousi

**Qachon:** yil davomida
**Qayerda:** Sharm Al-Shayx
«1001 kecha» saroyi tashrif buyuruvchilarni haqiqiy sharq ertagiga yetaklaydi. Har oqshom bu savdo-ko'ngilochar markazi teatr sahnasiga aylanadi. Bu erda ajoyib shoularni tomosha qilish, Misr tarixini o'rganish, sharqona raqslarning o'ziga maftun etadigan ritmlari va sehrgarlarning chiqishlaridan zavq olish va albatta, qadimgi davr sehri va arab mamlakatlari muhitiga g'arq bo'lish mumkin. Dasturning hikoya qismi bir nechta tillarda, shu jumladan, ingliz va rus tillarida olib boriladi.




## Ru Open up Fest

**Когда:** 5 января 2024 г.
**Где:** Казань, Республика Татарстан
Любителей хореографии точно заинтересует танцевальный фестиваль, организованный в рамках танцевального лагеря OPEN UP DANCE CAMP vol.2.

## Uz Open up Fest

**Qachon:** 2024-yil 5-yanvar
**Qayerda:** Qozon, Tatariston Respublikasi
Xoreografiya ixlosmandlarini OPEN UP DANCE CAMP vol.2 raqs lageri doirasida tashkil etiladigan raqs festivali qiziqtirishi aniq.

## Ru UNTOLD DUBAI 2024

**Когда:** 15-18 февраля 2024 г.
**Где:** Дубай, ОАЭ
UNTOLD – крупнейший музыкальный фестиваль, стартовавший в 2015 году в Румынии. За эти годы он стал пользоваться огромной популярностью: организаторы заявляют, что ежегодно он привлекает более 375 000 посетителей, заняв шестое место в ТОП-100 фестивалей по версии Dj Mag. На фестивале будет представлена музыка в жанрах EDM, house, techno, hip-hop. Хедлайнерами в этот раз станут Armin Van Buuren, Hardwell, Timmy Trumpet, Ellie Goulding, G-Eazy, Major Lazer, Bebe Rexha, Don Diablo и Paul Kalkbrenner. Отметим, что это дебют фестиваля на Ближнем Востоке. Билеты можно приобрести на официальном сайте мероприятия: untold.ae

## Uz UNTOLD DUBAI 2024

**Qachon:** 2024-yil 15–18-fevral
**Qayerda:** Dubay, BAA
UNTOLD – 2015-yilda Ruminiyada start olgan yirik musiqa festivali. Yillar davomida u juda mashhur bo'ldi: tashkilotchilarning so'zlariga qaraganda, festivalga har yili 375 000 dan ortiq kishi tashrif buyuradi. Dj Mag tasnifi bo'yicha, festivallar TOP-100 da oltinchi o'rinni egallaydi. Festivalda EDM, house, techno, hip-hop janrlaridagi musiqalar yangraydi. Bu safar Armin Van Buuren, Hardwell, Timmy Trumpet, Ellie Goulding, G-Eazy, Major Lazer, Bebe Rexha, Don Diablo va Paul Kalkbrenner xedlaynerlari bo'lishadi. Aytgancha, bu festivalning Yaqin Sharqdagi debyuti hisoblanadi.
Chiptalarni tadbirning rasmiy veb-saytida xarid qilish mumkin: untold.ae



## Ru Aspire International Kite Festival

**Когда:** 2-18 февраля 2024 г.
**Где:** Доха, Катар
Каждый год небо над Дохой оживает. Международный фестиваль воздушных змеев традиционно проводится с 2017 года и принимает сотни участников со всего мира. В программу фестиваля входят лекции, соревнования, мастер-классы и главное событие – конкурс воздушных танцев.

## Uz Aspire International Kite Festival

**Qachon:** 2024-yil 2–18-fevral
**Qayerda:** Doxa, Qatar
Har yili Doxa osmoni jonlanadi. 2017-yildan beri an´anaviy ravishda o'tkazib kelinayotgan xalqaro varraklar festivalida butun dunyodan kelgan yuz-lab ishtirokchilar qatnashadi. Festival dasturiga ma´ruzalar, musobaqalar, mahorat darslari va asosiy tadbir — havo raqslari tanlovi kiritilgan.






## Ru Jewellery Salon Jeddah 2024

**Когда:** 5-8 февраля 2024 г.
**Где:** Джидда, Саудовская Аравия
Самая роскошная выставка ювелирных изделий, предоставляющая возможность брендам выйти на крупнейший ювелирный рынок Ближнего Востока. Для понимания уровня выставки отметим, что среди клиентов компаний-участников – высокопоставленные лица и медийные персоны.

Посетители смогут ознакомиться с последними коллекциями эксклюзивных ювелирных изделий, привезенных со всего мира.

## Uz Jewellery Salon Jeddah 2024

**Qachon:** 2024-yil 5–8-fevral
**Qayerda:** Jidda, Saudiya Arabistoni
Brendlarga Yaqin Sharqning yirik zargarlik bozoriga kirish imkoniyatini taqdim etadigan zargarlik buyumlarining eng hashamatli ko'rgazmasi. Ko'rgazma mavqei haqida tasavvurga ega bo'lishingiz uchun aytib o'tamiz - ishtirokchi kompaniyalarning mijozlari orasida yuqori martabali shaxslar va media olamining vakillari bo'ladi.

Tashrif buyuruvchilar butun dunyodan olib kelingan eksklyuziv zargarlik buyumlarining so'nggi to'plamlari bilan tanishishlari mumkin.



## Ru Карнавал в Гоа

**Когда:** 10-13 февраля 2024 г.
**Где:** Гоа, Индия
Ежегодно в феврале Гоа превращается в большую вечеринку: на улицах проходят парады, костюмированные шествия и всюду звучит музыка. Это поистине яркое и живое событие, которое позволит проникнуться духом культуры и окунуться в атмосферу праздника.

## Uz Goa karnavali

**Qachon:** 2024-yil 10–13-fevral
**Qayerda:** Goa, Hindiston
Har yilning fevral oyida Goa bayram og'ushida qoladi – ko'chalarda paradlar, liboslar sayli bo'lib o'tadi, hammayoqda musiqa yangraydi. Bu haqiqatan ham yorqin va jonli tadbir bo'lib, madaniyat ruhini his etish va bayram muhitiga sho'ng'ish imkonini beradi.

---

## Ru Зимние игры «Кыш батыр»

**Когда:** 17 февраля 2024 г.
**Где:** Казань, Республика Татарстан
Это не просто спортивное мероприятие, а целый фестиваль исторического многоборья, ежегодно становящийся самым ярким и значимым событием зимы в Татарстане. В рамках фестиваля различные площадки интегрированы в общее пространство и объединены общей тематикой: «Снега и зрелищ!».

## Uz «Qish botir» qishki o'yinlari

**Qachon:** 2024-yil 17-fevral
**Qayerda:** Qozon, Tatariston Respublikasi
Bu nafaqat sport tadbiri, balki yil sayin Tataristonda qishning eng yorqin va muhim voqeasiga aylanib borayotgan tarixiy ko'pkurash festivalidir. Tadbir doirasida turli maydonchalar yagona kenglikka integratsiya qilingan bo'lib, «Qor va tomosha!» umumiy mavzusi ostida birlashadi.




**Не упустите возможность получить новые эмоции и впечатления!**

*Yangi hissiyot va taassurotlar olish imkoniyatini boy bermang!*




# Montenegro-2024 Yozgi Mavsumini Ochiq Deb E´lon Qilamiz!

*Летний сезон Монтенегро-2024 объявляем открытым!*

Uz Dunyo bo‘ylab sayohat qilishni hech orzu qilganmisiz? Ulug‘vor tog‘lardan zavq olishni, okeanning shaffof suvida suzishni, yangi madaniyatlar bilan tanishishni istaganmisiz? Javobingiz ijobiy bo‘lsa, Prestige Travel sayyohlik firmasi bu orzularingizni ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

2024-yil 8-iyundan boshlab, Prestige Travel go‘zal Chernogoriyaga viza va ortiqcha tashvishlarsiz, eng hamyonbop narxlarda to‘g‘ridan–to‘g‘ri reyslarni qayta tiklaydi! Bu yo‘nalish o‘tgan mavsumda o‘zbekistonliklar orasida juda mashhur bo‘ldi.

Ru Вы когда-нибудь мечтали о том, чтобы отправиться в путешествие по миру? Полюбоваться величественными горами, искупаться в прозрачных океанах, познакомиться с новыми культурами? Если да, то туроператор Prestige Travel поможет вам воплотить в жизнь эти мечты.

С 8 июня 2024 года Prestige Travel возобновляет прямые рейсы до прекрасной Черногории – без виз и лишних забот, по самым выгодным ценам! Это направление стало особенно популярным среди Узбекистанцев в прошлом сезоне.

## Sharm al-Shayx, Misr
### *Шарм-эль-Шейх, Египет*

Qish faslida oilaviy hamda yoshlar dam olishi uchun eng sevimli maskanlaridan biri. Qisqa davom etadigan parvoz, arzon narxlar, charaqlagan quyosh va All Inclusive mehmonxonalari. Sharm al-Shayxga parvozlar har hafta, payshanba va shanba kunlari amalga oshiriladi. Ajoyib iqlim, iliq dengiz, qumli keng plyajlar, yuqori sifatli mehmonxonalar, ekzotikaga boy turli xil ekskursiyalar — bularning barchasi Misrdagi ta´tildan unutilmas taassurot qoldiradi.

Одно из любимых направлений для семейного и молодежного отдыха в зимний период. Недолгий перелет, низкие цены, яркое солнце и отели All Inclusive. Перелеты в Шарм-эль-Шейх осуществляются еженедельно, по четвергам и субботам. Прекрасный климат, теплое море, широкие песчаные пляжи, качественные отели, разнообразные экскурсии, бьющая через край экзотика – все это делает отдых в Египте незабываемым.

## Serquyosh BAAda ta'til
### *Каникулы в солнечных ОАЭ*

Prestige Travel Centrum Air aviakompaniyasi bilan birgalikda haqiqiy ertaklar olami yaratilgan, bir qarashdan hayratga solib, maftun etadigan mamlakatga sayohat paketlarini taqdim etadi. Sahrodagi gullab-yashnagan bog´lar, dengizdan qad ko´targan orollar, suv ostida qurilgan hayvonot bog´i va brilliant bilan savdo qiluvchi butun boshli supermarket — u yerda imkonsiz narsa yo´qdek tuyuladi!

Prestige Travel совместно с авиакомпанией Centrum Air предоставляет турпакеты, где вы можете окунуться в настоящую сказку. Речь идет о стране, которая завораживает с первого взгляда. Кажется, что там нет ничего невозможного – в пустыне расцветают сады, а в море вырастают острова, зоопарк построен под водой, и целый супермаркет бриллиантов!




Sayohat borasidagi orzularingizni ro´yobga chiqarishingiz uchun Prestige Travel butun dunyo bo´ylab sayohatlarning keng tanlovini taklif etadi. Hech bir cheklovga duch kelmaysiz: oilangiz va do´stlaringiz bilan unutilmas hordiq chiqarishingiz uchun sizga qulay bo'lgan parvoz sanalari, ko´plab mamlakatlar va mehmonxonalar tanlovi mavjud. Tajribali menejerlar ehtiyojlaringiz va mablag´ingizga to´liq mos keladigan turni tanlashda sizga yordam beradi.

Мы предлагаем широкий выбор туров по всему миру, чтобы вы могли воплотить в реальность свою мечту о путешествии. Никаких ограничений: удобные даты вылета, большой спектр стран и гостиниц, в которых вы можете провести незабываемое время с семьей и друзьями. Опытные менеджеры помогут вам подобрать тур, полностью отвечающий вашим потребностям и бюджету.

**Ofislarimiz** *Наши офисы*

O´zbekiston, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko´chasi, 7-uy.
Узбекистан, г. Ташкент, ул. Абдуллы Кадыри, 7.

O´zbekiston, Toshkent shahri, Jangoh mavzesi, 12-uy.
Узбекистан, г. Ташкент, массив Джангох, 12.

Qirg´iziston, Bishkek shahri, Kiyev ko´chasi, 118.
Киргизия, г. Бишкек, Киевская, 118.

Ozarbayjon, Boku shahri, Hasan oglu, 9.
Азербайджан, г. Баку, Hasan oglu, 9.

Vyetnamdagi bosh ofis: Xanoy shahri, № 2, Alley 63/33/71 Le Duc Tho, My Dinh 2 ward, Nam Tu Liem District.
Головной офис во Вьетнаме: г. Ханой, No 2, Alley 63/33/71 Le Duc Tho, My Dinh 2 ward, Nam Tu Liem District.

Mintaqaviy ofis: Fukuok oroli, So 06 ap Cua Lap, xa Duong To.
Региональный офис: остров Фукуок, So 06 ap Cua Lap, xa Duong To.

Turlar haqida batafsil ma´lumot:
Подробная информация о турах:

55 515-55-00
95 144-44-44
prestigetravel.uz

# *"Olivye-chi?":* Yangi yil turli mamlakatlarda qanday kutib olinadi

## «А как же оливье?»: как встречают Новый год в разных странах



Ru Новый год – один из главнейших праздников, который отмечают во всем мире. Но в каждой стране есть свои особенности: от даты проведения до традиций празднования. Так как же отмечают главную ночь года в разных странах? Какие обряды соблюдают люди, живущие на разных континентах? Где новый год наступает не зимой? Мы ответили на все эти вопросы и собрали самые яркие факты о любимом празднике миллионов людей.

Uz Yangi yil - butun dunyoda nishonlanadigan eng asosiy bayramlardan biri. Ammo, har bir mamlakatda bayramni o'tkazish sanasidan tortib uni nishonlash an´analarining o'ziga xos xususiyatlari bor. Xo'sh, yilning asosiy kechasi turli mamlakatlarda qanday nishonlanadi? Turli qit´alarda yashovchi kishilar qanday udumlarga rioya qilishadi? Qayerda Yangi yil qishda kelmaydi? Biz bu savollarning barchasiga javob topdik va millionlab odamlarning sevimli bayramiga oid eng qiziqarli faktlarni to'pladik.

Ru **АВСТРАЛИЯ** *(1 января)*

В Стране кенгуру Новый год празднуют 1 января. Однако, в это время года наступает австралийское лето. Самый серьезный масштаб торжества принимают в больших городах, где под открытым небом выступают разноплановые творческие коллективы. Один из крупнейших на планете фейерверков запускают в небо в гавани Sydney Harbor. Великолепие салюта приятно созерцать с башни города Сидней, билеты туда продаются заранее.

В Тасмании и Виктории проходит The Falls Festival, особенно популярный среди молодежи. Во всех штатах австралийцы поздравляют друг друга с праздником громко и шумно: они отправляются на пляж, где наслаждаются серфингом, танцами и организуют пикники. Вечеринки длятся 5 дней.








Uz **AVSTRALIYA** *(1-yanvar)*

Kengurular mamlakatida Yangi yil 1-yanvarda nishonlanadi. Biroq, Avstraliyada yilning bu paytida yoz fasli boʻladi. Bayram asosan yirik shaharlarda keng koʻlamda nishonlanadi, turli xil ijodiy jamoalar ochiq havoda chiqishlar qiladi. Sidney Harbor bandargohida sayyoramizdagi eng yirik mushakbozliklardan biri uyushtirladi. Salyutning ulugʻvorligini Sidney shahri minorasida turib tomosha qilish yoqimli. U joy uchun chiptalar oldindan sotiladi.

Tasmaniya va Viktoriyada ayniqsa, yoshlar orasida juda mashhur boʻlgan The Falls Festivali oʻtkaziladi. Barcha shtatlarda avstraliyaliklar bir-birlarini baland ovozda va shovqin solib bayram bilan tabriklashadi: plyajga borib syorfingda uchishadi, raqs va pikniklar uyushtirishadi. Bayram kechalari 5 kun davom etadi.



Ru

**АНГЛИЯ** *(1 января)*

В Англии в новогоднюю ночь принято разыгрывать сценки из сказок, проводить карнавал и уличные ярмарки. Для подарков дети готовят не чулок, как в ряде стран, а тарелку, которую ставят на стол. Перед заветной полуночью тишину пронзает звон колокола, сигнализирующий о наступлении Нового года. Одновременно с этим под веткой омелы влюбленные предаются поцелуям – считается, что этот романтический ритуал уберегает пару от расставания в течение следующих 12 месяцев.

На классическом праздничном столе англичан присутствуют индейка с картофелем, каштанами и соусом, выпечка с мясной начинкой и тушеная брюссельская капуста. На десерт подаются фрукты и пудинг.

**Дата празднования Нового года была определена в 1752 году.**

Yangi yilni nishonlash vaqti 1752-yilda belgilangan.

Uz

**ANGLIYA** *(1-yanvar)*

Angliyada Yangi yil kechasi ertak sahnalarini qo'yish, karnaval va ko'cha yarmarkalarini o'tkazish odat tusiga kirgan. Sovg'alar uchun bolalar bir qator mamlakatlarda bo'lgani kabi paypoq osishmaydi, balki stol ustiga likopcha qo'yishadi. Uzoq kutilgan yarim kechadan oldingi sukunatni Yangi yil kelganidan xabar beruvchi qo'ng'iroqning ovozi buzadi. Qo'ng'iroq bong urayotgan paytda oshiqlar omela novdasi ostida bir-biridan bo'sa olishadi, bu — romantik udum bo'lib, keyingi 12 oyda ularni ajralishdan saqlaydi, deb hisoblanadi.

Inglizlarning odatdagi bayram stolida kartoshka va kashtan bilan pishirilgan sousli kurka go'shti, go'shtli pishiriq va dimlangan bryussel karami bo'ladi. Desert tariqasida dasturxonga meva va puding tortiladi..

Ru

**МЬЯНМА** *(12-17 апреля)*

Бирманцы (а именно так сегодня продолжают называть жителей бывшей Бирмы) отмечают Новый год в середине весны. Дату празднования устанавливает Министерство культуры, и, как правило, это середина апреля. Жители Мьянмы заблаговременно готовятся к празднику, так как считают необходимым соблюдать древние обычаи, несущие счастье и удачу.

Самая главная новогодняя традиция в Мьянме – фестиваль воды Тинджиан. В апреле заканчиваются знойные дни и начинается самое благодатное время – сезон тропических дождей, влияющих на урожай Нового года. И чтобы привлечь дожди, по мнению местных жителей, нужно обливаться. В этот день можно поливать водой не только знакомых, но совершенно чужих людей. Никто не обидится за намокшую праздничную одежду, ведь быть мокрым в бирманский Новый год – это счастливая примета. Вода льется рекой, и «стар и млад» обливают друг друга из любой подвернувшейся под руку посуды. Люди верят, что вода смывает все горечи и невзгоды уходящего года и прокладывает светлую дорожку году наступающему..





**БРАЗИЛИЯ** *(1 января)*

Новый год в Бразилии начинается в разгар лета, как и в Австралии. Празднование посвящено дню водной богини Иманжи – покровительницы моряков. Ей приносят дары в виде свечей и цветов, которые отправляют вплавь, а после загадывают желания.

В новогоднюю ночь в Бразилии не бьют куранты – оставшиеся до полуночи секунды считают вслух. Из подарков дарят в основном сувениры, так как главные презенты вручают еще на Рождество. В праздничную ночь все жители одеваются в белое, братаются, прощают друг друга и вместе смотрят световое шоу в Копакабане и салют в местечке ди Фрейтас. После встречи Нового года начинается карнавал.

Uz

**MYANMA** *(12–17-aprel)*

Birmaliklar (bugungi kunda sobiq Birma aholisi oʻzlarini shunday deb atashda davom etmoqda) Yangi yilni bahor oʻrtalarida nishonlaydilar. Bayram sanasi Madaniyat vazirligi tomonidan belgilanadi va bu odatda aprel oyining oʻrtalariga toʻgʻri keladi.

Baxt va omad keltiradigan qadimiy urf-odatlarga rioya qilishni zarur deb bilgan Myanma aholisi bayramga oldindan tayyorgarlik koʻrishni boshlaydi.

Myanmadagi Yangi yilning eng muhim an´anasi — Tinjian suv festivali. Aprel oyida jazirama issiq kunlar yakuniga yetib, eng barokatli vaqt — Yangi yil hosiliga ta´sir qiladigan tropik yomgʻirlar mavsumi boshlanadi. Mahalliy aholining fikriga koʻra, yomgʻirni chaqirish uchun odamlar ustilaridan suv toʻkishlari kerak. Shu kuni nafaqat tanishlarga, balki mutlaqo begonalarga ham suv sepish mumkin. Bayram libosi hoʻl boʻlsa,  hech kim xafa boʻlmaydi, chunki birmaliklarning Yangi yilida hoʻl boʻlish – bu baxt belgisidir. Odamlarning ustiga suv har tarafdan quyiladi, keksa-yu yosh qoʻliga tushgan har qanday idishdan bir-biriga suv sepadi. Odamlar suv oʻtgan yilning barcha qiyinchilik va musibatlarini yuvib ketadi, kelgusi yil uchun yorugʻ yoʻl ochadi, deb hisoblaydi.

**BRAZILIYA** *(1-yanvar)*

Braziliyada Yangi yil yozgi bayram boʻlib, u Avstraliyadagi kabi yozning qizgʻin pallasida boshlanadi. Bayram dengizchilar homiysi boʻlgan suv ma´budasi - Imanji kuniga bagʻishlangan. Unga atab sham va gullar koʻrinishidagi sovgʻalar olib kelinadi va ularni suvga oqizib yuborib, tilak bildiriladi.

Yangi yil kechasi Braziliyada kurantlar bong urmaydi — yarim kecha kirishiga qolgan soniyalar ovoz chiqarib hisoblanadi. Sovgʻa sifatida odatda suvenirlar beriladi, chunki asosiy sovgʻalar biroz avval Rojdestvoda berilgan boʻladi. Bayram kechasi barcha aholi oq rangdagi liboslar kiyib birodarlashadi, bir-birlarini kechiradi va birgalikda Kopakabanadagi yorugʻlik shousini va di Freytasdagi mushakbozlikni tomosha qilishadi. Yangi yil kutib olinganidan keyin karnaval boshlanadi.



Ru **ВЕНГРИЯ** *(1 января)*

Жители Венгрии верят, что шумное веселье может отогнать нечистую силу и злых духов. Этому обычаю явно присущи остаточные явления времен язычества, сохранившиеся по настоящее время. Молодежь Венгрии с удовольствием и энтузиазмом продолжает традиции своих предков, устраивая различные переодевания и уличные гуляния, которые сопровождаются неизменными дудками, хлопушками, клаксонами.

**ВЬЕТНАМ** *(21 января-10 февраля)*

Во Вьетнаме празднование Нового года по лунному календарю – традиционный национальный праздник, который носит название «Тэт». Тэт – понятие многогранное: это и подготовка к проводам старого и встрече нового года, полная радостной суеты, покупок и приготовлений; и традиционные ритуалы и обряды, игры и конкурсы, музыкальные и костюмированные выступления, проводимые до и после начала Нового года по лунному календарю. Вместе с тем это совершенно особое состояние людей, когда кажется, что все плохое и грустное остается в старом году, а новый принесет только все хорошее и доброе.

В Новый год также принято обмениваться добрыми пожеланиями, написанными черными чернилами на красной бумаге, украшать дом ветками цветущего персика и взрывать самодельные хлопушки.

**На стол подаются разнообразные блюда из свинины, так как готовить курицу на праздник запрещено.**

Bayramda tovuq pishirish ta´qiqlangani uchun dasturxonga cho'chqa go'shtidan tayyorlangan turli xil taomlar tortilgan

Uz **VENGRIYA** *(1-yanvar)*

Vengriya aholisi shovqin-suronli o'yin-kulgi ins-jins va yovuz ruhlarni quvib soladi, deb hisoblaydi. Bu odat butparastlik davridan hozirgi kungacha saqlanib qolgan hodisalarga xosdir. Vengriya yoshlari doimiy qamishsurnay, poqildoq, klaksonlar hamrohligida turli xil kiyim-kechaklarda ko'cha bayramlarini uyushtirib, ota-bobolarining urf-odatlarini zavq va ishtiyoq bilan davom ettirmoqda.

**VYETNAM** *(21-yanvar–10-fevral)*

Vyetnamda oy taqvimiga ko'ra nishonlanadigan Yangi yil an´anaviy milliy bayram bo'lib, «Tet» deb ataladi.

Tet - serqirra tushunchadir: bu ham Eski yilni kuzatishga va Yangi yilni kutib olishga tayyorgarlik, quvonchli yugur-yugur, xaridlar va pishir-kuydir; ham oy taqvimi bo'yicha Yangi yil boshlanishidan oldin va keyin o'tkaziladigan an´anaviy marosimlar, udumlar, o'yin va tanlovlar, musiqiy va libosli chiqishlardir. Shu bilan birga, bu odamlarning mutlaqo o'zgacha kayfiyati bo'lib, hamma yomon va qayg'uli narsalar eski yilda qolib, yangisi esa, faqat yaxshi va xayrli narsalarni olib kelishiga umid bildirishadi.

Shuningdek, Yangi yilda qizil qog'ozga qora siyohda yaxshi tilaklar yozib almashish, uyni gullab turgan shaftoli novdalari bilan bezash va qo'lbola poqildoqlarni portlatish odat tusiga kirgan.








Ru **ГЕРМАНИЯ** *(1 января)*

В отличие от Рождества, Новый год в Германии принято праздновать не в тихом семейном кругу, а шумно и весело, поэтому этот праздник так любит немецкая молодежь. Немцы в этот день собираются на улицах и главных площадях города, запускают фейерверки и салюты или ходят в бары и клубы. Гуляния под открытым небом в центре Берлина – самые массовые в стране и одни из самых крупных в мире. Каждый год здесь собираются до двух миллионов гостей. На сцене у Бранденбургских ворот всю ночь сменяют друг друга музыканты, на улице «17 июня» устраивают «кулинарную милю»: вдоль целого проспекта устанавливают праздничные столы, на которых представлен огромный выбор блюд и напитков, а ровно в полночь в небо взлетают около шести тысяч салютов.

**ИСПАНИЯ** *(1 января)*

Каждый испанец под бой курантов обязательно съедает дюжину виноградин – этот ритуал дарует удачу на весь следующий год. В испанских магазинах даже продают банки с виноградинами без семечек и шкурки.

Еще один интересный момент: Новый год нужно встретить в нижнем белье красного цвета, чтобы в течение следующих 12 месяцев не испытывать материальных проблем. Традиция распространяется и на мужчин, и на женщин..

Uz **GERMANIYA** *(1-yanvar)*

Rojdestvodan farqli oʻlaroq, Germaniyada Yangi yilni tinchgina oila davrasida emas, balki shovqin-suron va quvonch bilan nishonlash odat tusiga kirgani uchun nemis yoshlari bu bayramni juda yoqtirishadi. Oʻsha kuni nemislar shaharning koʻcha va asosiy maydonlariga toʻplanib, mushakbozlik uyushtiradi yoki bar va klublarga boradi. Berlin markazida boʻladigan ochiq havodagi ommaviy sayillar mamlakat va dunyodagi eng yirik sayillardan biri hisoblanadi. Har yili bu yerda ikki millionga yaqin mehmon yigʻiladi. Brandenburg darvozasi yonidagi sahnada musiqachilar tun boʻyi bir-biri bilan oʻrin almashib, musiqa ijro etadi, «17-iyun» koʻchasida esa «pazandalar milyasi» tashkil etiladi — butun shohkoʻcha boʻylab turli xil taom va ichimliklari boʻlgan bayram stollari oʻrnatiladi, qoq yarim tunda osmonga olti mingga yaqin mushak otiladi.

**ISPANIYA** *(1-yanvar)*

Har bir ispaniyalik mahalliy kurantlar bongi ostida, albatta, oʻn ikkita uzum donasini yeydi — bu udum kelgusi yil omadli boʻlishi uchun bajariladi. Ispaniya doʻkonlarida hatto shisha idishlarda urugʻi olingan va poʻsti archilgan uzum donalari sotiladi.

Yana bir qiziqarli narsa: keyingi 12 oy davomida moddiy muammolarga duch kelmaslik uchun Yangi yilni qizil ichki kiyimda kutib olish kerak. An´ana ham erkaklarga, ham ayollarga tegishli.

**Новый год в Германии называют Сильвестр – в честь Папы Римского Сильвестра I.**

Germaniyada Yangi yil Rim Papasi Silvestr I sharafiga Silvestr deb nomlanadi.



Ru

**ИТАЛИЯ** *(1 января)*

Многим известно, что перед Новым годом итальянцы избавляются от старых вещей, согласно средневековым традициям выбрасывая их прямо в окна. Этот обычай соблюдается не во всех крупных городах: в основном он жив в деревенской местности. В Новый год жители Италии отправляются за проточной водой и несут ее домой, стараясь встретить сгорбившегося старика. По поверьям, это сулит удачу, в отличие от столкновения с детьми или монахами. Вместо Деда Мороза подарки в стране раздает летающая на метле Фея Бефана. Однако волшебный дедушка в Италии тоже есть, его имя – Баббо Натале..

**КИТАЙ** *(21 января - 21 февраля)*

Один из самых любимых праздников в стране – китайский Новый год, также известный как «Чуньцзе» (Праздник весны) или Лунный Новый год. Новогодний фестиваль считается самым почитаемым и продолжительным праздником в стране: он отмечается в течение пятнадцати дней, являющихся официальными выходными. В Новый год жители Китая совершают омовение Будды в храмах и практикуют обливания, когда слышат добрые пожелания в свой адрес.

Каждый год ассоциируется с одним из двенадцати животных зодиакального китайского календаря, среди которых крыса, бык, тигр, кролик, дракон, змея и прочие. Согласно легенде, эти животные были выбраны по приказу великого Нефритового Императора, который послал за ними с небес на землю своего верного слугу.





**В Китае Новый Год празднуют дважды: по Григорианскому и китайскому календарям.**
Xitoyda Yangi yil ikki marta — Grigoriy va Xitoy taqvimlariga ko'ra nishonlanadi.

Uz

**ITALIYA** *(1-yanvar)*

Ko'pchilikka ma´lumki, Yangi yil oldidan italiyaliklar o'rta asr an´analariga amal qilgan holda eski narsalarni to'g'ridan to'g'ri derazadan uloqtirib, ulardan xalos bo'lishadi. Bu odat yirik shaharlarning barchasida ham kuzatilmaydi: u asosan qishloq joylarda saqlanib qolgan. Yangi yilda italiyaliklar yo'lda munkayib qolgan chol duch kelishiga umiq qilib, uyga oqar suv keltirish uchun yo'l olishadi. Rivoyatga ko'ra, bola yoki rohibni uchratishdan farqli o'laroq, bu omad keltiradi. Mamlakatda sovg'alarni Qorbobo o'rniga supurgida uchadigan pari Befana tarqatadi. Biroq, Italiyada Babbo Natale nomli sehrgar bobo ham bor..

**XITOY** *(21-yanvar–21-fevral)*

Mamlakatdagi eng sevimli bayramlardan biri «Chunsze» (Bahor bayrami) yoki Oy Yangi yili deb ham nomlanadigan Xitoy Yangi yilidir. Yangi yil festivali mamlakatdagi eng qadrli va uzoq davom etadigan bayram hisoblanadi: u rasmiy dam olish kunlari hisoblanadigan o'n besh kun davomida nishonlanadi. Yangi yilda xitoyliklar ibodatxonalarda Budda tahoratini amalga oshirib, o'z nomlariga yaxshi tilaklarni eshitganda, ustilaridan suv quyishadi.

Har bir yil Xitoy burj taqvimidagi o'n ikki jonivordan biri: kalamush, buqa, yo'lbars, quyon, ajdaho, ilon va boshqalar bilan bog'lanadi. Afsonaga ko'ra, bu jonivorlar ularni olib kelish uchun osmondan yerga o'zining sodiq xizmatkorini yuborgan buyuk Nefrit Imperatorining buyrug'i bilan tanlangan.

Ru

**КОЛУМБИЯ** *(1 января)*

В Колумбии есть два новогодних персонажа – Старый год и Папа Паскуале. Первый выступает в виде тряпичной куклы, прикрепленной к длинной палке и выбрасываемой после боя курантов. Часто в костюм Старого года наряжаются уличные артисты, возвышающиеся над толпой на деревянных ходулях. После наступления заветной полуночи они спускаются с ходуль и начинают отмечать праздник вместе со всеми участниками уличных шествий.

Папой Паскуале колумбийцы величают Деда Мороза, и его роль, как и повсюду в мире, очевидна и понятна. Он дарит подарки маленьким жителям страны, которые в ответ рассказывают старику стихи и поют песни. Ровно в 12 часов ночи колумбийцы начинают вкушать виноград. Обычай съедать дюжину ягод и загадывать столько же желаний под бой часов пришел в Южную Америку от испанских колонистов и прижился на далеком континенте.

**НЕПАЛ** *(14 апреля)*

В Непале Новый год приходит с первыми лучами солнца, а не в полночь. Ночью же до самого восхода жители страны разжигают костры, куда сбрасывают все старые или ставшие ненужными вещи, чтобы вместе с ними сгорели проблемы уходящего года. В Новый год, как считают местные жители, не нужно брать то, что не пригодилось в предыдущем, ведь для важного не останется места.

Жители Непала сооружают громадную красочную колесницу, везущую статуи Шивы и богини Кали. В центре города начинается настоящая борьба: западная и восточная части стремятся перетянуть повозку на свою территорию. По ее завершении процессия направляется к реке, где установлен гигантский лингам Шивы – это символ бога, знаменующий собой плодородие земли. Как только его обрушивают, наступает Новый год. За право повалить лингам Шивы развязывается еще одна стилизованная битва.




Uz

**KOLUMBIYA** *(1-yanvar)*

Kolumbiyada ikkita Yangi yil qahramoni bor — Eski yil va Papa Paskuale. Birinchisi kurantlar bong urgandan keyin tashlab yuboriladigan, uzun tayoqqa mahkamlangan latta qoʻgʻirchoq. Koʻpincha Eski yil kostyumini uzun yogʻochoyoqlarda olomondan ajralib turadigan koʻcha artistlari kiyib oladi. Orziqib kutilgan yarim kecha boshlanishi bilan, ular yogʻochoyoqlardan tushib, bayramni sayil ishtirokchilari bilan birga nishonlaydilar.

Kolumbiyaliklar Qorboboni Papa Paskuale deb ataydilar, uning roli dunyoning hamma yeridagi Qorboboniki kabi aniq va tushunarli. U aytib berilgan sheʼr va kuylangan qoʻshiqlar evaziga kichkintoylarga sovgʻalar beradi. Roppa-rosa soat 12 da kolumbiyaliklar uzum yeyishni boshlaydilar. Soat bong urganda oʻn ikkita rezavor meva yeb, shuncha istakni niyat qilish odatini Janubiy Amerikaga ispan mustamlakachilari olib kelishgan va bu uzoq qitʼada oʻrnashib qolgan.

**NEPAL** *(14-aprel)*

Nepalda Yangi yil yarim tunda emas, balki quyoshning birinchi nurlari bilan kirib keladi. Kechasi quyosh chiqishiga qadar nepalliklar gulxan yoqib, oʻtgan yilning muammolari birga qoʻshilib yonib ketishi uchun eski yoki keraksiz boʻlgan narsalarni unga tashlab yuborishadi. Mahalliy aholining fikriga koʻra, Yangi yilga avvalgisida foydasi tegmagan narsalarni olishning hojati yoʻq, chunki muhim narsalar uchun joy qolmaydi.

Nepalliklar Shiva va maʼbuda Kali haykallarini olib yuradigan ulkan rang-barang arava quradi. Shahar markazida haqiqiy kurash boshlanadi: shaharning gʻarbiy va sharqiy qismlari aholisi aravani oʻz hududiga tortib olishga harakat qiladi. Bu tadbir yakunlangach, marosim unumdor yer ramzi boʻlgan ulkan Shiva lingami oʻrnatilgan daryoga yoʻl oladi. U qulashi bilanoq Yangi yil kelgan hisoblanadi. Shiva lingamini yiqitish huquqi uchun ham yana bir kurash boʻlib oʻtadi.

CENTRUMAIR



Uz **SHVETSIYA** *(1-yanvar)*
Yangi yil arafasida mamlakatning barcha bolalari Lusiya — yorug'lik malikasini saylaydi. Avliyo Lusiya kuni rangli chiroqlar, za'faronli bulochkalar, cherkov va maktablardagi konsertlar bilan uzviy bog'liqdir.

Ilgari butun Shvetsiya Lusiyasi saylovi har yili markaziy televideniye orqali efirga uzatilgan, har bir aholi punkti mahalliy qirolicha unvoni uchun tanlov o'tkazgan. Ushbu lavozimga tayinlangan qiz Yangi yilgacha oq ko'ylak va ustiga yonib turgan shamlar o'rnatilgan toj kiyadi. U uy hayvonlariga yegulik, bolalarga esa shirinliklar beradi. Yorug'lik bayrami hamma joyda yonib turgan yorqin chiroqlar bilan o'tadi.

**SHOTLANDIYA** *(1-yanvar)*
Shotlandiya Yangi yili «Xogmani» deb nomlanadi va olov bayrami shaklida bo'lib o'tadi. Uning ishtirokchilari eski yilni ifodalaydigan qora smola to'ldirilgan bochkalarni yoqishadi. Bu hurmat bajo keltiriladigan qadimgi urf-odat bo'lib, unga ko'ra, olov yovuz kuchlardan himoya qiladi va suvga botgandan keyin suv ruhlari odamlarni qo'llab-quvvatlashni boshlaydi.

Shotlandlar uyida birinchi yanvar kuni eng orziqib kutiladigan ilk mehmon — uy ostonasidan qo'lida sovg'a bilan kirib keladigan qoramag'iz kishi. Mahalliy rivoyatlarga ko'ra, qora sochli odam omad keltiradi. Bayramga kelgan mehmonlar o'zlari bilan ko'mir olib kelishlari kerak va keyinchalik ular omad keltirishi uchun kaminga tashlanadi.

Ru **ШВЕЦИЯ** *(1 января)*
В канун Нового года шведские дети по всей стране проводят выборы Люсии – королевы света. День Святой Люсии неразрывно связан с цветными фонариками, шафрановыми булочками, концертами в церквях и школах.

Раньше выборы Люсии всей Швецией транслировались ежегодно в эфире центрального телевидения, а каждый населенный пункт проводил конкурс на звание местной королевы. Назначенная на этот пост девушка по сей день надевает белое платье и корону, на которой закреплены зажженные свечи. Она угощает лакомствами домашних питомцев и одаривает детей конфетами. Праздник света сопровождается зажженными повсюду яркими огнями..

**ШОТЛАНДИЯ** *(1 января)*
Шотландский Новый год носит название «Хогмани» и проходит в формате Праздника огня. Его участники сжигают бочки, наполненные дегтем, что символизирует старый год. Это дань древним традициям, согласно которым пламя защищает от злых сил и после погружения в воду обеспечивает людям поддержку духов воды. Самый желанный первый гость первого января в шотландском доме – брюнет, переступающий порог дома не с пустыми руками. Мужчина с темными волосами, согласно местным поверьям, приносит удачу. Гости, приходящие на праздник, должны приносить с собой уголь, который позже будет брошен в камин на удачу.

**В Швеции новогодние торжества длятся более полутора месяцев.**
Shvetsiyada Yangi yil tantanalari bir yarim oydan ko'proq vaqt davom etadi.

*Возможно, какую-то из традиций вы захотите использовать при праздновании в следующем году. Главное, чтобы Новый год вы встретили в кругу любимых людей. Ведь это время, когда нужно радоваться и веселиться вместе.*

*Kelgusi yil kirib kelishini nishonlash uchun, balki sizda qaysidir an'analardan foydalanish istagi paydo bo'lsa ajab emas. Asosiysi, Yangi yilni sevimli odamlar davrasida kutib olish. Axir, bu vaqt birgalikda xursandchilik qilish va o'yin-kulgi uchun mo'ljallangan.*

## Счастливых праздников!
*Bayramingiz muborak bo'lsin!*


РЕКЛАМА
CENTRUM
Holidays
soon



# Выше облаков

## *Bulutlardan yuksakda*

В детстве мы хотим побывать там, где никогда ранее не бывали. Сначала это соседний двор, потом ближайший район, а в конце – другие города. В нас живёт дух путешественника, мы мечтаем быть первопроходцами в разных сферах жизни. Именно поэтому кто-то становится географом или историком, археологом или антропологом, мореплавателем или пилотом самолёта. Но часто выходит так, что мечта детства так и остаётся всего лишь мечтой. И будучи взрослыми, мы не выходим дальше своего двора. Как осуществить свою мечту о путешествии в далекие страны? У нас есть ответ: стать пилотом Centrum Air.

Bolalikda biz ilgari hech qachon boʻlmagan joyga borishni istaymiz. Dastlab bu qoʻshni hovli, keyin eng yaqin mahalla, oxirida -boshqa shaharlar. Bizda jahongashtalik ruhi yashaydi, hayotning turli sohalarida kashshof boʻlishni orzu qilamiz. Aynan shuning uchun kimdir geograf yoki tarixchi, arxeolog yoki antropolog, dengizchi yoki samolyot uchuvchisiga aylanadi. Ammo, koʻpincha bolalikdagi orzu shunchaki orzu boʻlib qolaveradi. Ulgʻaygach hovlimizdan tashqariga chiqmay qoʻyamiz. Uzoq mamlakatlarga sayohat qilish orzusini qanday amalga oshirish mumkin? Bizda bunga javob bor: Centrum Air uchuvchisi boʻlish.





## Чтобы стать частью команды пилотов авиакомпании Centrum Air (возраст кандидата – до 50 лет), в своём багаже необходимо иметь следующее:

*Centrum Air aviakompaniyasining uchuvchilar jamoasi safiga qo'shilish uchun siz quyidagilarga ega bo'lishingiz kerak:*

1. Не менее 500 часов налёта в качестве командира воздушного судна (КВС) или второго пилота;
   - havo kemasi sardori (HKS) yoki ikkinchi uchuvchi sifatida kamida 500 soat parvoz tajribasi;

2. Документ, подтверждающий свидетельство пилота гражданской авиации (CPL, ATPL), выданный Авиационной администрацией Республики Узбекистан или иностранного государства;
   O'zbekiston Respublikasi yoki xorijiy davlat Aviatsiya ma'muriyati tomonidan berilgan fuqaro aviatsiyasi uchuvchisi guvohnomasini (CPL, ATPL) tasdiqlovchi hujjat;

3. Действующий документ, подтверждающий уровень владения английским языком (уровень 4 по шкале ICAO), выданный Авиационной администрацией Республики Узбекистан или иностранным государством;
   O'zbekiston Respublikasi yoki xorijiy davlat Aviatsiya ma'muriyati tomonidan berilgan ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi (ICAO shkalasi bo'yicha 4-daraja) amaldagi hujjat;

4. Трудовую книжку, свидетельствующую о работе и занимаемых должностях за последние 5 лет;
   So'nggi 5 yil ichidagi ish joyi va egallagan lavozimlarni tasdiqlovchi mehnat daftarchasi;

5. Перерыв в лётной работе не более одного года до даты подачи заявления;
   Ariza berilgan sanada parvozlar orasidagi tanaffus bir yildan ortiq bo'lmasligi kerak;

6. Удостоверение личности (ID Card) и/или международный паспорт;
   Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (ID-karta) va/yoki xalqaro pasport;

7. Гражданство – не имеет значения;
   Fuqarolik — muhim emas;

8. Рекомендательное письмо с последнего места работы на узбекском, русском или английском языке.
   Oxirgi ish joyidan o'zbek, rus yoki ingliz tilidagi tavsiyanoma.

Резюме отправлять на почту:
Rezyume quyidagi pochtaga yuboriladi:
info@centrum-air.com



# Где пройти обучение, если нет подходящих навыков

## *Ko‘nikmalar yetarli bo‘lmaganda qayerda ta’lim olish mumkin*

Первоначальную подготовку пилотов гражданской авиации можно пройти в учебно-тренировочном центре «Training Center». Подробную информацию можно найти на официальном сайте aviatraining.uz

В авиакомпании Centrum Air работают настоящие мастера своего дела, потому рассматриваются кандидаты исключительно с опытом налёта не менее 500 часов. Как только будет наработан данный стаж, мы будем рады видеть вас в составе нашей команды.

Fuqaro aviatsiyasi uchuvchilari uchun dastlabki tayyorgarlikni «Training Center» o‘quv-mashq markazida o‘tkazish mumkin. Bu haqda batafsil rasmiy veb-saytda tanishish mumkin: aviatraining.uz

Centrum Air aviakompaniyasida haqiqiy professionallar va o‘z sohasining mutaxassislari ishlaydi, shu sababli kamida 500 soat parvoz tajribasiga ega bo‘lgan nomzodlar ko‘rib chiqiladi. Ushbu tajribani to‘plaganingizdan so‘ng, sizni jamoamiz safida ko‘rishdan mamnun bo‘lamiz.

**Став частью команды Centrum Air, вы получаете:**
Centrum Air jamoasi safida bo‘lishning afzalliklari:

Возможность улучшать свои навыки и профессионализм в процессе работы с опытной командой пилотов, а также повышать квалификацию в специальных учебных центрах;
Tajribali uchuvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonida o‘z ko‘nikmalaringiz va professional darajangizni oshirish, shuningdek, maxsus o‘quv markazlarida malaka oshirish imkoniyati;

Достойную заработную плату, бесплатное питание и много других бонусов.
Munosib ish haqi, bepul ovqat va boshqa ko‘plab bonuslar kutmoqda.

РЕКЛАМА





# Единение с природой

*Maftunkor shinamlik: trendga aylangan tabiatdagi dam olish turi*



**Казалось бы, поход и комфорт – вещи абсолютно несовместимые. Однако люди, стремящиеся к удобству, присмотрели для себя относительно новый подход к отдыху на природе. Имя ему – глэмпинг.**

Глэмпинг представляет собой альтернативный вид туризма, совмещающий единение с природой и роскошь. Его название появилось в результате слияния слов «*glamorous*» и «*camping*». Впервые оно стало применяться в 2005 году в Великобритании, а в 2016-м было занесено в Оксфордский словарь.

Корнями само понятие глэмпинга уходит в далекое Средневековье, когда для глав государств и вельмож в походных условиях обустраивались шатры, оборудованные всеми удобствами. По сути это были настоящие мини-дворцы на открытой природе. В современном же понимании этот вид туризма стал развиваться в конце XX столетия, что связано с проведением крупных музыкальных фестивалей. Фанаты популярных исполнителей проводили ночь в автомобилях и палатках, что нравилось, конечно, не всем. А поскольку дискомфорт – главный двигатель прогресса, начали появляться места с более хорошими условиями.

---

**Tabiat qoʻyniga sayr va qulaylik bir-biriga mutlaqo mos kelmaydigan narsalardek tuyuladi. Ammo, qulaylikka intiladigan kishilar tabiatda hordiq chiqarishga nisbatan yangicha yondashuvni topishdi. Uning nomi — glemping.**

Glemping bu — turizmning tabiat va hashamatni birlashtirgan muqobil turi. Uning nomi «glamorous» va «camping» soʻzlarining yigʻindisidan paydo boʻlgan. U ilk bor 2005 yilda Buyuk Britaniyada qoʻllangan, 2016 yilda esa, Oksford lugʻatiga kiritilgan.

Glemping tushunchasining kirib kelshi uzoq oʻrta asrlarga, safarlarda davlat rahbarlari va zodagonlar uchun barcha qulaylik va sharoitlarga ega chodirlar hozirlangan paytga borib taqaladi. Aslida, bu tabiat qoʻynidagi haqiqiy eng kichik saroylar boʻlgan. Bizga kelib, turizmning bu turi XX asr oxirida yirik musiqa festivallari oʻtkazilishi bilan rivojlana boshladi. Mashhur ijrochilarning muxlislari tunni mashina va chodirlarda oʻtkazardi va albatta, bundan hammaning ham koʻngli toʻlmas edi. Noqulaylik hissi - taraqqiyotning asosiy omili boʻlgani bois, yaxshiroq sharoitlarni taqdim qiluvchi joylar paydo boʻla boshladi.

CENTRUMAIR




1



2

Ru Сегодня глэмпинг стал оптимальным видом отдыха на природе для тех, кто не мыслит свою жизнь без горячей ванны, но желает провести время вдали от городской суеты. Широкий спрос на него привел к появлению различных интерпретаций: от обычных сафари-тентов до люксовых шатров и разнообразных геометрических конструкций. Рассмотрим основные типы:

1 **Bell Tent** — привычные тканевые палатки, установленные на опорный шест. Вариант не люксовый, зато с удобными кроватями и необходимым для проживания минимумом.

2 **Safari Tent** — те же палатки, но располагаются уже на деревянном помосте и обычно имеют живописные веранды

3 **Домики из дерева** — привычные строения с большими окнами. Часто встречаются постройки формата A-Frame – деревянные строения в форме буквы «А», расположенные на помосте. Обычно обе стороны под крышей застеклены, благодаря чему турист может насладиться естественным освещением и панорамными видами.

**Впервые понятие глэмпинг появилось в 2005 году в Великобритании.**
«Glamping» tushunchasi birinchi marta 2005-yilda Buyuk Britaniyada paydo boʻlgan.

4 **Транспорт** — привычный глазу благодаря поп-культуре вид глэмпинга, представленный вагончиками и домами на колесах. Однако можно встретить и весьма оригинальное воплощение, выраженное в форме кораблей или самолетов.

5 **Геометрия** — сферы, кубы и другие конструкции, которые выглядят современно и необычно, порой даже футуристично. Самая популярная форма – геокупол.

6 **Шатры, юрты и другие традиционные виды жилья.** Они просторнее и прочнее палаток и подойдут для проживания круглый год.





3



4

Uz Bugungi kunda, glamping o‘z hayotini issiq vannasiz tasavvur qila olmaydigan, ammo, vaqtini shahar shovqinidan uzoqroqda o‘tkazishni istaganlar uchun ochiq havoda dam olishning eng maqbul turiga aylandi. Unga bo‘lgan katta talab oddiy safari-tentlardan tortib, hashamatli chodirlar va har xil geometrik konstruksiyalargacha bo‘lgan turli talqinlarning paydo bo‘lishiga turtki berdi. Ularning asosiy turlarni ko‘rib chiqamiz:.

1 **Bell Tent** — tayanch ustuniga o‘rnatilgan odatdagi mato chodirlar. Lyuks variant emas, ammo, qulay krovat va yashash uchun zarur bo‘lgan eng kam sharoitlarga ega.

